

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI  
VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI  
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**QORAQOLPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDOGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

“Tasdiqlayman”

Qoraqolpoq davlat universiteti  
huzuridagi pedagog kadrlarni qayta  
tayyorlash va ularning malakasini  
oshirish mintaqaviy markazi direktori  
\_\_\_\_\_ K. Ubaydullaev

“\_\_\_\_\_” 2015 yil

**Qoraqolpoq davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarini qayta  
tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi**

**«Til va adabiyot o`qitish metodikasi» moduli bo`yicha**

**O`QUV - USLUBIY MA`KMUA**

**Tuzuvchi**

**M.Ataniyazova**

**NUKUS-2015**

## **МУНДАРИЖА**

ISHCHI DASTURI.....	3
MA'RUZA MATNI.....	7
1-MAVZU. Metodika tushunchasi. Oliy ta'limda o`qitishning metodlari .....	7
2-MAVZU. Ta'lim jarayonida ilg`or informasion-texnologiyalarni qo`llash metodikasi ..	26
3-MAVZU. Oliy ta'limda ma'ruza o`qish metodikasi va ma'ruzalarning turlari .....	38
AMALIY MASHG`ULOTLAR MAVZUSI VA MAZMUNI .....	48
1-MAVZU: Metodika tushunchasi. Oliy ta'limda o`qitishning metodlari .....	48
2-MAVZU: Ta'lim jarayonida ilg`or informatsion-texnologiyalarni qo`llash metodikasi ..	54
3-mavzu: Oliy ta'limda ma'ruza o`qish metodikasi va ma'ruzalarning turlari .....	61
4-mavzu: Amaliy mashg`ulotlar, seminarlar va laboratoriya mashg`ulotlarini o`tkazish metodlari .....	68
VIZUAL MATERIALLAR.....	74
TEST SAVOLLARI .....	81
NAZORAT SAVOLLAR .....	85

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI  
VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI  
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

“Tasdiqlayman”

Qoraqolpoq davlat universiteti  
huzuridagi pedagog kadrlarni qayta  
tayyorlash va ularning malakasini  
oshirish mintaqaviy markazi direktori  
\_\_\_\_\_ K. Ubaydullayev “\_\_\_\_\_”  
\_\_\_\_\_ 2015 yil

**Qoraqolpoqdavlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarini qayta  
tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi**

**«Til va adabiyot o'qitish metodikasi»**  
oliy ta'lif muassasalari filologiya yo'nalishi umumkasbiy va maxsus fanlari  
professor-o'qituvchilarining malaka oshirish kursi

**ISHCHI DASTURI**

## **Til va adabiyot o`qitish metodikasi ISHCHI DASTUR**

### **I. Modulning maqsadi va vazifalari**

“Til va adabiyot o`qitish metodikasi” modulining maqsadi - pedagogik faoliyatga nazariy va kasbiy tayyorgarlikni ta’minlash va yangilash, ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish bo`yicha bilim, ko`nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan.

Modulning vazifasi: pedagogik kadrlar tayyorgarligiga qo`yiladigan talablar, ta’lim va tarbiya haqidagi hujjatlar, fanning dolzarb muammolari va zamonaviy konsepsiyalari, filologiya sohasidagi innovasiyalar va dolzarb muammolar mazmunini o`rganishga yo`naltirishdan iborat.

### **II.Modulni o`zlashtirishga qo`yiladigan talablar**

Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar “Til va adabiyot o`qitish metodikasi” modulini o`zlashtirish orqali quyidagi bilim, ko`nikma va malakaga ega bo`ladilar:

#### **Tinglovchi:**

- O`zbekiston Respublikasida oliy ta’limning maqsad, vazifalari va dolzarb muammolari;
- oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlarini;
- ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlarini;
- ta’lim tizimida muloqot va kommunikativ jarayonlarning shakl va qonuniyatlarini;
- pedagogik jarayonlar qonuniyatları va shaxsni o`qitish, tarbiyalash, rivojlantirishning zamonaviy nazariyasi va texnologiyalarini;
- til fanlarini o`qitish metodikasini zamon talablariga asoslanib talqin qilish.
- adabiyot fanlarini o`qitish metodikasini fan yutuqlari zaminida bayon etish.
- oliy maktab til va adabiyot ta’limida innovation va pedagogik texnologiyalarning zarurligini dalillar vositasida ko`rsata bilish.
- pedagogik mahorat asoslarini bilishi kerak.

#### **Tinglovchi:**

- o`quv-metodik hujjatlarni yarata olish;
- elektron o`quv materiallarini yaratish texnologiyalarini bilishi hamda ulardan ta’lim jarayonida foydalanish;
- pedagoglarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirish jarayonida o`z-o`zini rivojlantirishga bo`lgan ongli ehtiyojni shakllantirish;
- shaxsiy pedagogik va metodologik madaniyatni rivojlantirish;
- ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish;
- o`zbek tili va adabiyoti ta’limida oliy ta’lim mazmuniga mos holda mashg`ulot shakllarini tanlash va o`tkazish;
- o`zbek tili va adabiyoti fani ta’limida yoshlar ongiga milliy g`oya va ma’naviyat asoslarini singdirib borish tamoyillari va omillarini bilish;

- o'zbek tili va adabiyoti ta'limalda pedagogik texnologiyalar va o'qitishning texnik vositalari, kompyuterdan foydalanish;
- o'zbek tili va adabiyoti ta'limalda neyrolingvistik dasturlardan foydalanishni tanlash;
- O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy hujjatlar tizimidagi o'zgarishlarni amaliyatga tatbiq eta olish ko'nigmalariga ega bo'lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- pedagogik monitoring olib borish;
- psixologik-pedagogik diagnostikaning zamonaviy metodlaridan foydalanish;
- filologiya fanlaridan innovation o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, amalga oshirish, baholash, takomillashtirish;
- filologiya fanlarini o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish;
- filologiya fanlarida innovation o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, amalga oshirish, baholash, takomillashtirish;
- kommunikativ vazifalarni hal etish texnologiyalari, kasbiy muloqot usullaridan foydalanish, hamkorlik ishlarini olib borish malakalariga ega bo'lishi zarur.

**III. Modulning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

Modul mazmuni o'quv rejadagi psixologiya, pedagogik texnologiya, pedagogik maxorat, AKT va boshqa barcha blok fanlari bilan uzviy bog'langan holda ularning ilmiy-nazariy, amaliy asoslarini ochib berishga xizmat qiladi.

**IV.Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Fan oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining pedagogik mahoratini oshirish va ta'lim jarayonini tashkil etish, oliy ta'lim tizimining nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

**V.Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

N	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat						Mustaqil ta'lim	
		Hammasi	Auditoriya hquv yuklamasi				jumladan		
			Jami	nazariy	Amaliy	Ko'chma mashg'ulot			
1.	Metodika tushunchasi. Oliy ta'limda o'qitishning metodlari	4	4	2	2				
2.	Ta'lim jarayonida ilg'or informasion-texnologiyalarni qo'llash	4	4	2	2				

	metodikasi						
3.	Oliy ta'limda ma'ruza o'qish metodikasi va ma'ruzalarning turlari	4	4	2	2		
4.	Amaliy mashg`ulotlar, seminarlar va laboratoriya mashg`ulotlarini o'tkazish metodlari	4	4		4		
	Jami 16 soat	16	16	6	10		

davra suhbat, munozara, kichik guruhlarda ishslash hamda boshqa interfaol metodlardan

#### Kalendar reja

N	Mavzular	Mashg`ulot turi	soati	O'tkazilish muddati
1.	Metodika tushunchasi. Oliy ta'limda o'qitishning metodlari	ma'ruza	2	Har oyning 3-4-haftasida
2.	Ta'lim jarayonida ilg`or informatsion-texnologiyalarni qo'llash metodikasi	ma'ruza	2	Har oyning 3-4-haftasida
3.	Oliy ta'limda ma'ruza o'qish metodikasi va ma'ruzalarning turlari	ma'ruza	2	Har oyning 3-4-haftasida
4.	Amaliy mashg`ulotlar, seminarlar va laboratoriya mashg`ulotlarini o'tkazish metodlari	amaliy	4	Har oyning 3-4-haftasida
5.	Metodika tushunchasi. Oliy ta'limda o'qitishning metodlari	amaliy	2	Har oyning 3-4-haftasida
6.	Ta'lim jarayonida ilg`or informatsion-texnologiyalarni qo'llash metodikasi	amaliy	2	Har oyning 3-4-haftasida
7.	Oliy ta'limda ma'ruza o'qish metodikasi va ma'ruzalarning turlari	amaliy	2	Har oyning 3-4-haftasida

## MA'RUZA MATNI

### **1-MAVZU. Metodika tushunchasi. Oliy ta'limga o'qitishning metodlari (2 soat)**

**REJA:**

- 1.TA'LIM TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI.
2. TA'LIM METODLARI TASNIFI.
3. DARAJALI YONDASHUV.

**Tayanch tushunchalar:** Metod, yo'l, usul, an'anaviy metodlar, evristik metod, tadqiqot metodlari, ta'limga ob'ekti, ta'lim sub'ekti, o'quvchi ta'lim kechimining ob'ekti va sub'ekti sifatida, metodni belgilashda o'qituvchi va o'quvchi faoliyati va ta'lim mazmuni chambarchasligi, metod tuushnsaidagi o'zgaruvchanlik, har bir o'qituvchining o'z metodlari borligi.

### **TA'LIM TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI**

**Konseptuallik**, ya'ni ta'lim texnologiyasi falsafiy, psixologik, didaktik va ta'limiy maqsadning ijtimoiy-pedagogik asoslangan aniq ilmiy g'oyalarga asoslanadi.

**Tizimlilik**, ya'ni yaxlitlilik, tuzilmaviylik, barcha tashkiliy qismlarning o'zaro bog'liqligi.

**Boshqaruvchanlik**, ya'ni ishlarni aniq bajarilishida ko'rindi. *Pedagogik g'oya – dastlabki bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirish.* Ta'lim berish jarayoni *aniq tuzilmaga* keltirilgan: pedagogik va o'quv harakatlari, boshqaruvchilik, axborotli va muloqatli ishlar ifodalangan ketma-ketlik ta'limiy maqsadlar kutilayotgan natijalar bilan muvofiqlikda alohida shaklda ifodalanadi. Texnologik jarayon *tabaqalashtirilgan* va individuallashtirilgan, juftlikda, yakka tartibda, kichik guruhlarda yoki jamoali suhbat {dialog, polilog} asosida tashkil qilinadi, ya'ni ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchining o'zaro bog'liq faoliyatini nazarda tutgan holda tashkil qilinadi. *Qaytar aloqani* ta'minlaydi – tizimli tezkor ishslash natijasi joriy natijalarни uzlusiz kuzatishni, tashxislash va tezkor baholashni, tahlil va maqbul boshqaruv xulosa qabul qilishni ta'minlaydi. *Tashxis* ishlari faoliyat natijalarini aniq bir ma'nodagi mezon va ko'rsatkichlarni o'z ishiga oladi. *O'zgartirish* jarayoni ta'lim oluvchini xatoliklariga emas, balki ta'lim jarayonini ta'lim oluvchiga nisbatan belgilangan maqsadga erishishini ta'minlashga qaratilgan.

**Samaradorlik** - ta'lim texnologiyasi samarali natija va ta'lim maqsadlariga erishish kafolatini ta'minlashi shart.

**Maqbullik** – ta'lim texnologiyasining hammabop tizimliligining belgisidir. Ta'lim texnologiyasi ta'lim maqsadlariga erishishda ta'lim oluvchining kuch va vaqtini sarf qilishda inson imkoniyatlari va texnik zahiralaridan foydalanish bo'yicha maqbul yo'l va vositalarni ta'minlaydi.

**Takroriylik** – xohlagan ta'lim beruvchi shu texnologik ishlar tartibini shundayligicha qo'llasa, shunday natijaga erisha olishining mumkinligi.

## *Ta'lim texnologiyasining tuzilmasi*

Ta'lim texnologiyasi – tizimli toifa bo`lib, tuzilmaviy tashkil etuvchi va qismlari quyidagilardan iborat:

*Ta'limning yo'l va vositalari:* ta'lim usullari, ta'lim shakllari, ta'lim yo'llari, texnikalari, ta'lim vositalari.

Muloqotning yo'l va vositalari: ta'lim beruvshi va ta'dim oluvshi bilan birga vaqt bo'yisha bo`lingan tezkor qaytar aloqa asosida bevosita o`zaro faol harakati.

*Axborotning yo'l va vositalari:* axborotni etkazish – monolog, dialog, polilog; axborotni olish – tashxis, baholash, kuzatuv.

*Boshqaruvning yo'l va vositalari:* bashoratlash, rejalashtirish, nazorat, axborotni yig`ish, uning to`planishi va tahlil, o`zgaruvchanlikni va yo`nalishni aniqlash, boshqaru xulosasini qabul qilish, o`zgartirish kiritish.

*Maqsadni belgilash* – texnologiyalashtirishning asosiy omili hisoblanib, pedagogik texnologiyani loyihalashtirish, o`quv jarayonini tuzish hamda tashkillashtirish shundan boshlanadi. Maqsad – ko`zlanayotgan natija modeli ko`rinishidagi muhim yo`nalishning mahsulidir.

*Natija* – o`kuv faoliyatida ta'lim oluvchining rivojlanishda oldinga siljishidir, bu faoliyatda o`z aksini ko`rsatishi lozim. SHuningdek, ta'lim jarayonining samarali borishini namoyon qiladi, maqsadga erishilganlik darajasini ko`rsatadi.

### *Aniq maqsadni quyish yo'llari:*

- o`rganilayotgan mazmun-mohiyat orqali belgilanadi “...hodisani o`rganish mohiyatini belgilash”, “...qonunni o`rganish faoliyat jarayonidagi o`rnini belgilash”;
- ta'lim beruvchi faoliyati orqali belgilash mumkin: “...tushunchalar bilan tanishtirish”, “...matndagi istilohlarni tushuntirish”, “...qiyosiy tahlillar yordamida o`rgatish” kabi;
- ta'lim oluvchilar faoliyati orqali belgilash mumkin: “...topshiriqlarni bajarish”, “...mashqni ko`chirib yozish yoki bajarish”, “...savollarga javob berish”;
- ta'lim oluvchilarning aqliy, hissiy, shaxsiy rivojlanish jarayonlari orqali: “tanqidiy fikrlesh ko`nikmalarini shakllantirish”, “...tahlillash ko`nikmalarini rivojlantirish”, “...muammoga munosabatini shakllantirish”;
- ta'lim oluvchilar faoliyatida hosil bo`lgan ko`nikma va malakalar, ta'lim natijalari orqali: “...dalil, qonun, tushunchalarni biladilar”, “...ni tushunadi va ...ni izohlaydi”, “...muammoni quyi muammolarga bo`la oladi”, “...tahlil jarayonida nazariy bilimlarini qo`llay oladi”.

*Maqsad* – pedagogik vazifalarni hal qilish tizimidek ta'limiy va rivojlantiruvshi {tarbiyaviy va qiziqtiruvshi} kabi shakllarda belgilanadi va rasmiylashtiriladi.

Ta'lim oluvshilarni bilim, ko`nikma va malakalarini hisobga olgan holda quyidagi to`rt guruhga bo`lamiz:

1. *O`quvchilikka oid guruhi* - tanish tushunshalar asosida harakatlanadi. YA`ni ma'lum, tanish tushunshalarini o`zgartirishsiz, umumiyl taxminlarni aytadi, sanab o'tadi, matnni o`z so`zlari bilan qayta hikoyalaydi, tashqi belgilari va xususiyatlari bo'yisha biladi, taniydi, so`zma-so`z yozida, axborotni xatosiz qayta tiklaydi. Axborotni eshitadi, kuzatadi, eslab qoladi, xatosiz qayta tiklaydi.

2. *Tartiblilikka asoslangan guruh {algoritmik}* – namuna, o`xshashlik bo`yicha harakatlanadi. Asosiy fikrni ajratadi, baho beradi, yakun yasaydi, isbotlaydi, tasniflaydi, tushuntiradi, asoslaydi, umumlashtiradi, ishonchli dalillar keltiradi, qiyoslaydi, xulosalar chiqaradi. Vazifalarni mustaqil echadi, referat tayyorlaydi. Ketma-ketlik bo`yicha reproduktiv – qayta tiklash faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarni ongli ravishda o`zlashtiradi, ularni esda saqlab qoladi va qo`llay oladi, o`xshash harakatlarni namunada o`rganganlari bo`yicha ta`lim beruvchi rahbarligida bajaradi.

3. *Ijodiy fikrlovchi guruh {evristik}* – harakatlarni tanlaydi. SHaxsiy faoliyatini rejalashtiradi va tashkil qiladi, kerakli axborotni topadi, tanlaydi, qo`llaydi va yangidan hosil qiladi, matnni soddallashtiradi yoki murakkablashtiradi, bilim va malakalarini tanish yoki notanish holatlarda, muammoli topshiriqlarni bajarishda, muammoli holatlarni echishda qo`llay oladi; ijodiy faoliyatni amalga oshiradi, mustaqil tuzilgan reja asosida mustaqil izlanish va axborotlarni izlab topadi, o`zlashtirilgan bilimlarni yangidan hosil qiladi va ularni yangi holatda qo`llay oladi.

4. *Ijodkorlikka asoslangan guruh* – harakatlarni izlaydi. Muammoni mustaqil tanlaydi va uni hal qilish yo`lini topadi. Tadqiqot ob`ekti va predmetini topadi, tadqiqot farazi va vazifalarini ilgari suradi, tajriba o`tkazish rejasini tuzadi va o`tkazadi, tajriba natijalari asosida farazni tekshiradi, amaliyotdan olingan natijalarni qo`llash chegarasini aniqlaydi. Tadqiqotchilik turidagi mahsuldor faoliyatni amalga oshiradi.

O`quv fani bo`yicha ta`lim texnologiyasi quyidagilardan kelib chiqib ishlab chiqiladi:

- ◊ Ta`limni texnologiyalashtirish qoidasi;
- ◊ Fan bo`yicha o`quv axborot maqsadi, tuzilmasi, mazmuni va hajmi;
- ◊ DTS tomonidan belgilangan, o`quv rejasida aniq berilgan vaqtida va berilgan sharoitda ta`lim berish maqsadiga erishishni kafolatlovchi ta`lim berish, muloqot, axborot va boshqaruvning yo`l va vositalarini tanlashning konseptual yondashuvlari.

**Metod (usul)** - yunoncha so`zdan olingan bo`lib, “Metodos”- biror narsaga yo`l, haqiqatga tezlashtirish usuli. Ta`lim metodi- ta`lim mazmunini o`zlashtirishni ta`minlovchi, o`qituvchi va talabaning o`zaro bog`liq izchillikdagi harakatlari. Asosiy belgilari: Ta`lim maqsadini belgilaydi, O`zlashtirish tarzini belgilaydi, Ta`lim jarayoni sub`ektlari o`zaro harakatining xususiyatlarini tavsiflaydi.

Metodlarni tanlashning asosiy qoidasi - turlicha emas ta`lim berish maqsadiga mos kelishi.

Metodlarga qo`yiladgan asosiy talab - natija beradigan, faqat bittasini qo`llash.

Metod samaradorligining asosiy mezoni - belgilangan vazifani hal etish uchun uni qo`llashning mosligi va tejamkorligi.

Ta`lim texnologiyasini loyihalashda metodni ongli tanlash, har birining imkoniyatlarini ko`ra bilish kerak.

**METOD SAMARADORLIGINING ASOSIY MEZONLARI** - belgilangan vazifalarni hal etish uchun uni qo`llashning mosligi va tejamkorligi, uni qo`llashda soddallik va osonlik, nafaqat eng yaxshi natijalarni ta`minlashi, balki ularga erishishning yuqori ishonchlilagini ta`minlay olishi.

## TA'LIM METODLARI TASNIFI

I guruh metodlar – Ma'ruza, Hikoya, Tushuntirish, Yo`riqnomma berish, Namoyish, Ko`rsatish, Videometod. *Ta'lism beruvchi*: eng kam vaqt ichida katta hajmdagi o'quv axborotini etkazadi va xotirada qabul qilish, anglash va yig`ishni tashkillashtiradi

*Ta'lism oluvchilar*: xotiraga qabul qiladilar, anglaydilar, yig`adilar, biroq xatosiz, ongli ravishda qayta tiklamaydilar.

**Ma'ruza** – davomli vaqt ichida o'qituvchi tomonidan katta hajmdagi o'quv materialining monologik bayon qilishi. Usulning asosiy *vazifasi* - ta'lism berish.

**Belgilari**: qat'iy tuzilma, og`zaki-mantiqiy bayon qilish, berilayotgan axborotning ko`pligi.

**Hikoya** - hodisa, voqeа, haqiqat to`g`risida o'qituvchining monologik xabar berishi odatda u nazariy holatlarni aniqlashtirish, o`rganayotgan materialga qiziqishni uyg`otish uchun qo`llaniladi. Hikoya qilishga asosiy talab-materialni hissiy etkazib berish, san`atkorona, ta`sirchan bayon qilish.

**Tushuntirish** – bayon qilinayotgan materialning turli holatlarini xona doskasiga yozib tushuntirish, tahlil qilish, izoh berish va isbotlash orqali o'quv materialini bayon qilish.

•**Yo`riqnomma** – kasbiy tayyorgarlikda keng foydalaniladigan mustaqil usul bo`lib, u talabalarga aniq harakatlarning vazifalarini, ularni amalga oshirish yo`llarini, amaliy topshiriqlarni echish talablarini, ko`nikmalardan iborat harakatlar tartibini, ma`lum turga xos bo`lgan vaziyatlar tavsifi va ularni amaliyotda qo`llashni tushuntirishdir. *O`quv jarayonidagi o`rniga ko`ra yo`riqnomma berish uch turda bo`ladi*: kirish; joriy; yakuniy.

Yo`riqnomma berish shakliga ko`ra og`zaki, yozma, ko`rgazmali va aralash bo`lishi mumkin. YOzma yo`riqnomma berishda eng katta samaraga erishish mumkin bo`lib, bunda turli yo`riqnomali, ishlab chiqarishli, o`quv-ishlab chiqarishli va o`quv-uslubiy hujjatlardan (yo`riqnomali, texnologik, yo`riqnomaviy-texnologik harakatlar xaritasi, ishlar tartibi, qoidasi) foydalilaniladi.

•**Namoyish(Demonstrasiya)** - ta'lism oluvchilarni ob'ekt va hodisalar, jarayonlarni ularning tabiiy ko`rinishda ko`rgazmali-hissiy tanishtirish. Namoyish asosan jihoz (pribor), tajribalar, texnik moslamalar, kinofilm va boshq. namoyish etish bilan bog`liqdir.

•**Ko`rsatish (illyustrasiya)** - narsa, jarayon va hodisalarni ularni tasviriy ko`rinishda ko`rsatish va qabul qilishni ko`zlaydi. Bu usulning asosiy vazifasi - o`rgatish. Ko`rsatishning vositalariga sxemalar, jadvallar, rasmlar, sur`atlar, al`bomlar, xaritalar, yassi modellar xizmat qiladi

•**Ko`rish (videometod)** - usuli axborotni ko`proq ko`rgazmali kodoskop, proektor, kinoapparat, o`quv televideniyalar, shuningdek axborotni display bilan aks ettiruvchi kompyuterlar bo`yicha qabul qilishga asoslanadi

II guruh metodlar - Kitob bilan ishslash, Laboratoriya, Mashq, Amaliy.

*Ta'lim beruvchi:* bilimlarni o`zlashtirish va mustahkamlash, yangi bilimlarni qidirish, namuna bo`yicha harakatlarni bajarish malaka va ko`nikmalarni shakllantirish bo`yicha ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtiradi.

*Ta'lim oluvchilar:* bevosita ta'lim beruvchining boshchiligidagi tahlil qiladilar, taqqoslaydilar, umumlashtiradilar, tayyor namuna bo`yicha amaliy harakatlarni bajaradilar.

• Kitob Bilan ishslash metodi - talabaga o`zi uchun oson sur`atda va eng qulay vaqtida o`quv axboroti ustida ko`p marta ishslash uchun imkon beradi.

*Kitob bilan mustaqil ishslashning maqsadi quyidagilardan iborat bo`ladi:*

- uning tuzilishi bilan tanishish;
- ko`z yogurtirib chiqish;
- alohida boblarni o`qish;
- savollarga javob qidirish;
- referat yozish;
- tayanch konseptlar tuzish;
- mantiqiy tuzilmaviy chizmalarini tuzish;
- misol va topshiriqlarni echish, mashqlarni bajarish;
- nazorat testlarini bajarish;
- materialni xotirada saqlash.

• **Laboratoriya metodi** - ta'lim oluvchilarni mustaqil ravishda tajriba, tadqiqotlarni o`tkazishlariga asoslanadi. Tajribalar individual yoki guruhlarda o`tkazilishi mumkin. Laboratoriya metodi jihoz bilan ishslash ko`nikma va malakalarini egallahsga imkon beradi, o`lchash va hisoblash, natijalar ustida ishslash va mavjud bo`lganlar bilan taqqoslash, ma'lum bo`lganlarni tekshirish va mustaqil tadqiqotlarni yangi yo'llarini tanlash amaliy ko`nikmalarni shakllantirish uchun sharoitlarni ta'minlaydi.

• **Amaliy metod** - egallagan bilimlarni qo'llash bilan amaliy vazifalarni echish. Bu metod bilim, ko`nikma va malakalarini mustahkamlash funksiyalarini bajaradi, shuningdek vazifani echish nazorati va o`zgartirishni, bilish faoliyatini kuchaytirishga imkon beradi.

Амалий машғулотларда талабаларнинг билиш фаолияти беш босқичда ўтади:

1. Ўқитувчини тушунтириши. Ишни назарий англаш босқичи.

2. Намойиш. Йўриқнома босқичи.

3. Синаб кўриши. Икки-уч талабани ишни бажариши, бошқа талабалар Кузатадилар ва иш жараён вактида хатоликка йўл қўйилса, ўқитувчи раҳбарлиги остида танқидий мулоҳазалар берадилар.

4. Ишни бажариш. Ҳар бир талаба мустақил равищда топшириқни бажаради.

5. Назорат. Талабалар иши қабул қилинади ва баҳоланади.

Mashq- uni egallash yoki uni sifatini oshirish maqsadi bilan aqliy yoki amaliy harakatlarni takroriy (ko`p marta) bajarish.

Машқларни кўйидаги турларга ажаратадилар:

**Махсус машқлар.** Ўқув меҳнат кўникма ва малакаларини шакллантиришга йўналтирилган, кўп марта такрорланувчи машқларга айтилади.

**Хосил қилувчи машқлар.** Улар аввал шаклланган кўникмаларни такрорлаш ва мустаҳкамлашга имкон беради.

**Изоҳловчи машқлар.** Ўқув топширикларини онгли бажариш учун, ўқув жараёнини фаоллаштиришга хизмат қиласди. Унинг моҳияти ўқитувчи ва талаба бажарилётган ишларни изоҳлайдилар, натижада улар яхши тушунилади ва ўзлаштирилади.

**Оғзаки машиқлар.** Унинг вазифаси- ўқиш техникаси ва маданияти, оғзаки ҳисоб, ҳикоя қилиш, билимларни мантиқий баён қилиш ва б.эгаллашдир.

**Ёзма машиқлар** (стилистик, грамматик, орфографик диктантлар, иншо, конспект, вазифалар ечиш, тажрибалар баёни ва б.).

*Унинг вазифаси-* зарур кўникма ва малакаларни шакллантириш, ривожлантириш.

### **III гурӯҳ metodlar – Suhbat, Bahs, Aqliy hujum, Ta’limiy o`yin.**

*Ta’lim beruvchi:* faqat bilimning bir qismini ma’lum qiladi, ta’lim oluvchilarni bilimiň izlab topish qadamlarini bajarishga yo`naltiradi, turli muammoli vaziyatlarda o`qish-o`rganish jarayonini tashkillashtiradi

*Ta’lim oluvchilar:* ta’lim beruvchining kuzatuvi ostida mustaqil taqqoslaydilar, umumlashtiradilar, xulosa qiladilar, baholaydilar va tahlil qiladilar, muammoli holatlarni hal etadilar va nostandard topshiriqlarni echadilar, murakkablash-tirilgan sharoitdagi amaliy harakatlarni bajaradilar

• **Suhbat** – dialogli (yunoncha: dialogos - ikki yoki bir necha insonlar orasidagi so`zlashuv), ta’lim berish va o`rganishning savol-javobli yo`li. Usulning etakchi vazifasi - qiziqtirish: maqsadga yo`naltirilgan va mohirona qo`yilgan savollar yordamida ta’lim oluvchilarda berilgan mavzu bo`yicha o`zlarining bilimlarini eslash va bayon qilishga harakat qilinadi, o`qituvchi rahbarligida boshqa ta’lim oluvchilar bilan muhokama qilinadi.

• **Bahs (munozara)** - aniq muammo bo`yicha fikr almashish, muhokama shaklidagi ta’lim berishning faol usuli. Munozara usuli hamma vazifalarni bajaradi.

• **Aqliy hujum** (breynstroming-aqlar to`zoni) - amaliy yoki ilmiy muammolar echish g`oyasini jamoaviy yuzaga keltirish. Ishtirokchilar aqliy hujum vaqtida murakkab muammoni hal etishga harakat qiladilar: ularni tanqid qilishga yo`l qo`ymay uni hal etishning ko`proq shaxsiy g`oyalalarini yuzaga keltiradilar, so`ngra ko`proq oqilon/samarali/maqbul va boshqa g`oyalarni ajratadilar, ularni muhokama qiladilar va rivojlanadirilar, ularni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarini baholaydilar

• **Insert** – samarali o`qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi. **Insert** – avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo`yilish muolajasi. SHundan so`ng matnda uchraydigan, har turdagи axborotlarning belgilanishi. **Insert** - matn bilan ishslash jarayonida ta’lim oluvchiga o`zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta’minlovchi kuchli asbob. **Insert** - o`zlashtirishning

majmuali vazifalarini echish va o`quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o`quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o`qitish usulidir.

- **Pinbord** (inglizchadan: *pin-* mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o`quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat.

- **Ta’limiy o`yin** - Ishbilarmon va rolli (holatlari) o`yinlar muammoli topshiriqning bir turi. Faqat bunday holatda matnli material o`rniga, ta’lim oluvchilar tomonidan o`ynaladigan sahnalashtirilgan hayotiy holatlardan foydalaniladi.

- **Vaziyatlar usuli** – ta’lim beruvchining muammoli vaziyatlarni yaratishga va ta’lim oluvchilarning faol bilish faoliyatlariga asoslangan. U aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va keyingi qarorni qabul qilishdan tuzilgan

**IV guruhi metodlar** - O`quv loyihalar usuli, Keys-stadi.

*Ta’lim beruvchi:* ta’lim oluvchilarga muammoni, faraz, vazifalarni ifodalashda yordam beradi va tezkor boshqaradi.

*Ta’lim oluvchilar:* ular uchun yangi bo`lgan muammolarni echish jarayonida bilimlarni mustaqil izlaydilar, kutilayotgan natijalarga erishishning yo`l va vositalarini o`zлari aniqlaydilar.

- **Loyihalar usuli** bilim va malakalarni amaliy qo’llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmuali o`qitish usulini amalga oshiradi. Ta’lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o`qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar.

- **Keys-stadi** (case ingliz.- to`plam, aniq vaziyat, stadi- o`rganish) – bu usul, odatiy hayotni tashkillashtiruvchi vaziyatlarni yaratuvchi va ta’lim oluvchilardan maqsadga muvofiqroq echim izlashni talab qiluvchi, hayotdan olingan odatiy vaziyatlarni tashkillashtirish yoki sun’iy yaratilgan vaziyatlarga asoslanadi.

### 3. Таълим усулларини танлаш омиллари



**Faol** ta'lim berish metodi - ta'lim oluvchilarning bilim faoliyatlarini rag'batlantiruvchi usuldir. U yoki boshqa muammoni echish to'g'risidagi fikrlarni erkin almashinuvini nazarda tutuvchi dialog asosida quriladi

**Interfaol** (Interactive) ta'lim berish metodi (dialogli) - dialogli ta'lim berish, bunda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi, ta'lim oluvchi va kompyuterning o'zaro harakati amalga oshiriladi.

### **Faol ta'lim usullarini tasniflanishi**

Taqlidsiz: Muammoli ma'ruza, Ikki kishi bo'lib ma'ruza, Amaliyot , Guruhli munozara, Aqliy hujum.


Taqlidli: O'yinsiz - Aniq vaziyatlar tahlili, Vaziyatli muammolarni echish, O'yinli - O'yinli loyihalash, Ishbilarmon o'yin, Roli o'yin, Trening.

Muammoli ta'lim nazariyasida muammoni bir necha darajaga ajratish mumkin:

Tadqiqotchilik ishi eng yuqori daraja bo'lib, bunda talaba o'zi mustaqil ravishda muammoni ilgari suradi va uni hal etadi. Bu darajaga *tadqiqotchilik usuli* mos keladi va uni amalga oshirish shakli bo'lib - bu muammoli amaliy va nazariy topshiriqlarni echish hisoblanadi.

Qisman-izlanuvchilik darajada muammo (muammoli vaziyat) ta'lim beruvchi tomonidan ilgari surilib, uni echimini mustaqil ravishda topishni esa, ta'lim beruvchi rahbarligi ostida talabaga topshiriladi. Bu muammolikning o'rtacha darajasi bo'lib, u *evristik-dialog usuli* yordamida tashkil qilinishi mumkin hamda uni evristik xususiyatidagi suhbat shaklida amalga oshiriladi.



Muammolikning eng past darajasi- bu muammoli bayon etish bo'lib, bunda ta'lim beruvchini o'zi talabalar oldiga muammoli vaziyatni yaratib, muammoni ilgari suradi, o'zi farazni ilgari suradi va o'zi uni isbotlaydi. Bu darajaga mos keladigan usulni - muammoli bayon etish deb ataladi hamda uni amalga oshirish shakli – muammoli xususiyatdagi ma'ruza hisoblanadi.





Усуллар	Шакллар	Воситалар
Маъруза Хикоя Тушунтириш Йўриқнома бериш Намойиш Кўрсатиш Видеоусул	Маъруза Семинар Амалий машғулот Лаборатория машғулоти Мустакил иш	Диапроектор Графопроектор Доска-блокнот Доска-стенд Флипчарт Видеофильмлар Ёзув тахтасива бошк.
Китоб билан ишлаш Лаборатория усули Машқ Амалий иш усули Вазиятлар усули	Кундузги Масофавий	Модел,муляжлар График, диаграммлар Намуналар Чизма, схема ва бошк.
Суҳбат Баҳс Ақлий ҳужум Таълимий ўйин Пинборд Инсерт	Оммавий Жамоавий Гурухларда ишлаш Якка тартибда	Иш варакаси Эслатма Назорат вараги, Ўқув топшириги Матнлар ва бошк.
Ўқув лойиҳалар усули Кейс-стади		

SHAKL- (forma-lotincha-tashqi ko'rinish) – tashqi qobiq, tashqi ko'rinish ma'nosini ifodalaydi. TA'LIM SHAKLI - Bu o'quv jarayonini mavjud bo'lish yo'lli, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiqdir. Bu o'rnatilgan tartib va aniq tartibotda (rejimda) boruvchi, o'qituvchi va talabalarning maxsus tashkil etilgan faoliyatini tashqi ifodasi.





## уқитувчининг бошқарув харакатлари:

- Мақсадни белгилаш
- Ташхис
- Башорат қилиш
- Лойихалаш
- Режалаштириш
- Ташкиллаштириш
- Ахборотли таъминлаш
- Назорат, баҳолаш ва ўзгартириш киритиш
- Тугалланган жараён таҳлили

5

Maqsad - ko'zlanayotgan natija modeli ko'rinishidagi muhim yo'nalishning mahsuli. *Bu esa, ta'lim sub'ektlarining faoliyat yakunida egallashlari ko'zlanayotgan narsadir.* Maqsad-faoliyatning nihoyat darajada oldindan bilish natijasi. Maqsadni belgilash – texnologiyalashtirishning asosiy omili hisoblanib, pedagogik texnologiyani loyihalashtirish, o'quv jarayonini tuzish hamda tashkillashtirish shundan boshlanadi.

### Natija:

- o'quv faoliyatida olingan natija ta'lim oluvchining rivojlanishida oldinga siljish bo'lib, bu uning u yoki bu faoliyatida o'z aksini topadi;
- ta'lim jarayonining samarali borishini namoyon qilib, maqsadga erishilganlik darajasini xususiyatlaydi: ta'lim berish va ta'lim olish jarayoni natija maqsadga mos kelgandagina tugaydi.

Pedagogik maqsad- bu o'qituvchi va talaba tomonidan ularning o'zaro harakatini umumlashgan fikriy paydo bo'luvchilar shaklida oldindan ko'ra bilishi.

Pedagogik jarayon maqsadlari – ta'limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy.

O'quv maqsadlarini asosiy toifalari

1. *Bilim* – o'rganilayotgan materialni eslab qolish va qayta tiklash (foydalilanayotgan atamalarni; aniq dalillarni; metod va ish tartibini, asosiy tushuncha, qoida va yo'llarni biladi)

2. *Tushunish* – materialni bir shakldan boshqada ifodalanganga o'zgarishi talabani materialni izohlashi (tushuntirishi, qisqa bayon qilish, dalillarni, qoida va prinsiplarni tushunadi; sxema, grafik, diagrammalarni izohlaydi; og'zaki materialni matematik ifodalashlarga o'zgartiradi).

3. *Qo'llash* – o'rgangan materialni aniq sharoit va yangi vaziyatlarda qo'llay olishi (qonun, nazariyalarni aniq amaliy vaziyatlarda qo'llaydi, metod va ish tartibini to'g'ri qo'llashni namoyish etadi, tushunchalarini va prinsiplarni yangi vaziyatlarda qo'llaydi).

4. *Tahlil* – materialni shunday tarkiblarga bo'lish kerakki, bunda uni tuzilishi aniq ko'rinsin (yopiq (aniqlanmagan) taxminlarni ajratadi, xulosalar

mantig`idagi xatolik va tushib qoldirishlarni ko`radi, dalil va oqibatlar o`rtasida farqlarni o`tkazadi, ma'lumotlarni ahamiyatlilikini baholaydi).

5. **Sintez** – YAngilikka ega bo`lgan, umumiylizni olish, elementlarni umumlashtira olishi (ijodiy ishlar yozadi, tajribani o`tkazish rejasini taklif qiladi, u yoki boshqa muammoni echish rejasini tuzish uchun, turli sohadagi bilimlarni qo'llaydi).

6. **Baho-** Aniq maqsad uchun u yoki boshqa material (tasdiqlar, tadqiqot, izlanuvchilik ma'lumot) ahamiyatini baholay olishi (materialni mantiqiy tuzilishini yozma matn ko`rinishida baholaydi, xulosalarni ega bo`lgan ma'lumotlarga muvofiqligi baholaydi, u yoki bu faoliyat mahsuli ahamiyatini ichki mezonlardan kelib chiqib baholaydi, u yoki bu faoliyat mahsuli ahamiyatini tashqi mezonlardan kelib chiqib baholaydi).

## DARAJALI YONDASHUV

I. OID (TANISH BO`YICHA HARAKATLANISH - *Ta'lim maqsadi*: ...to`g`risida tushunchalarni shakllantirish. *Natjalar*: (ma'lum, tanish narsani o`zgartirishsiz, umumiylar taxminlarni) tushuntiradi, aytadi, sanab o`tadi; (o`z so`zlarida) qaytarib beradi; tashqi belgi va xususiyatlari bo`yicha biladi, taniydi; (so`zma-so`z) yozadi. *Baholash mezoni*: axborotni xatosiz qayta tiklaydi.

II. TARTIBLILIKKA OID (ALGORITM, NAMUNA, O`XSHASHLIK BO`YICHA HARAKATLANISH) - *Ta'lim maqsadi*: ...to`g`risida bilimlarni shakllantirish, nazariy bilimni o`xshashlik bo`yicha qo'llash, harakatlarni tartib bo`yicha bajarish malakalarini shakllantirish, (rivojlantirish, mustahkamlash).

*Natjalar*: asosiy fikrni ajratadi; baho beradi, yakun yasaydi, isbotlaydi, tasniflaydi; tushuntiradi, asoslaydi, umumlashtiradi, ishonchli dalillar keltiradi, solishtiradi va taqqoslaydi, xulosalar chiqaradi. *Baholash mezonlari*: o`quv faoliyat yo'llarini biladi, bor bilimlarini o`zgartiradi va ularni tanish sharoitlarda qo'llaydilar: namuna, o`xshashlik bo`yicha bajaradi.

III. IJODIY FIKRLOVCHILIKKA OID (EVRISTIK, HARAKATLARNI TANLASH) - *Ta'lim maqsadi*: shaxsiy faoliyat tartibini tashkil etish va shu bo`yicha mustaqil ijodiy izlanishni olib borish va bilimlarni izlab topish, ularni yangi holatlarda qo'llash malaka va ko`nikmalarini shakllantirish.

*Natjalar*: shaxsiy faoliyatini rejalahtiradi va tashkillashtiradi; kerakli axborotni topadi, tanlaydi, qo'llaydi va yangidan hosil qiladi; yasaydi, murakkablashtiradi, soddalashtiradi; sinaydi; bilim va malakalarni yangi holatlarda tanish va nostandard topshiriqlarni, muammoli holatlarni echish uchun qo'llaydi; *Baholash mezoni*: yangi holatda faoliyat yuritish qobiliyatini ko`rsatadi, yangidan hosil bo`lgan bilimlari asosida harakatlarni bajaradi, shaxsiy faoliyatini mustaqil tuzadi.

IV. IJODKORLIKKA OID (HARAKATLARNI IZLASH) - *Ta'lim maqsadi*: muammoni mustaqil ajratish va echish qobiliyati, tadqiqotchilik va

izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorgarlik, notanish holatlarda harakat qilish qobiliyatini shakllantirish (rivojlantirish).

*Natijalar:* muammoni mustaqil ajratadi va uni hal etish yo`lini topadi; tadqiqot ob`ekti va predmetini topadi, tadqiqot farazi va vazifalarini ilgari suradi, tajriba o`tkazish rejasini tuzadi, tajriba o`tkazadi, tajriba natijalari asosida farazni tekshiradi, tajribadan olinganlarni qo`llash chegarasini aniqlaydi. *Baholash mezoni:* tadqiqotchilik turdagи maqsadlar faoliyatini amalga oshiradi, tizimli yondoshish yo`llariga ega, tahlil qilish malaka va ko`nikmalarni namoyish etadi.

**Билим, қўникма ва малакаларни муваффақиятли ўзлаштириш тестларини ишлаб чиқиш  
(В. Беспалъко бўйича)**

Тест мақсади	Тестлар тоифаси ва турлари	Хусусиятлари	Жавоб лар	Тест топшириқларини ифодалаш намуналари
Талабалар аввал ўргангандан материални танишини текшириш (ўзлаштиришнинг I даражаси)	1. Таниб олишликка оид топшириқ	Бир вактни ўзида (айтиб бериш учун) <i>топшириқ ва жавобдан</i> иборат бўлади	«Ҳа» «Ӣўқ»	... хисобланадими?
	2. Ажратиб олишликка оид топшириқ	<i>Савол ҳамда танлаши учун жавоб вариантларидан</i> иборат бўлади	1) 2) 3) 4)	...шулардан қайси бири... тўғрилигини кўрсатинг
	3. Таснифлашликка оид топшириқ	Мос кисмларни таккослаш топширикларидан иборат бўлади	1-(а) 2-(в) 3-(б) 4-(г)	Мосликларни кўрсатинг (уларнинг тушунчаси ва белgilаниши)

Гашқи айтиб беришларисиз эсда қолғанлар бўйича ўзлаштирилган маълумотларн и қайта айтиб бериш ва шулар асосида намунавий топшириклар ечиш кўникмаларин и текшириш (ўзлаштиришнинг II даражаси)	1. Күшинчалар кўйиладиган тестлар	Хоҳлаган шаклда. оғзаки, белгили, чизмаларда тақдим этилган фикрларни тўлдириш талаб этилади	иуқ	... (формулани) тўлдиринг, (етишмаётган элементни)... кўрсатинг
	2. Тузилишлик (конструкторлик)-ка оид тестлар	Эсда қолғанларни айтиб беришларисиз қайта тақрор тиклашни талаб этади	йўқ	Бу "(тушунча / ифодалаш кўрсатилади) нима?"... Чизма чизинг ... Учун формулани ёзинг
	3. Намунавий топшириклар	Маълум бўлган коидаларни қайта тиклаш ва уни излангаётган натижага учун кўллаш талаб этилади	1) 2) 3) 4)	Намунавий топширик

Ижодий фикрлаш кўникмалар ини текшириш (ўзлаштиришнинг III даражаси)	Нооддий топшириклар	Намунавий тартиб остидаги топширикларни охирига етказишда, кўшича маълумотларни қидириш учун, дастлабки шароитларни ўзгартириш талаб этади.	1) 2) 3) 4)	Нооддий топшириклар
--	---------------------	---	----------------------	---------------------

Keys-stadi (inglizcha sase - to`plam, aniq vaziyat, stadi -ta'lim) - keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagи echimi variantlarini izlashga yo`naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir.

Keys-stadi - ta'lim, axborotlar, kommunikasiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga

kafolatli etishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan *ta'lim texnologiyasi*dir

Tipologik belgilari	Keys turi
Asosiy manbalari	1. Ishlab chiqarish 2. Kabinetdagi 3. Ilmiy-tadqiqotchilik
Syujet mavjudligi	1. Syujetli 2. Syujetsiz
Vaziyat bayonining vaqtdagi izchilligi	1. O'tmishdan hozirga kelish rejimidagi keys 2. Vaqt orqaga qaytariladigan keys-xotira 3. Prognostik keys
Keys ob'ekti	1. SHaxsiy 2. Tashkiliy-institusional 3. Ko'p sub'ektli
Materialni taqdim etish usuli	1. Hikoya 2. Esse 3. Tahliliy yozishma 4. Jurnalist tergovi 5. Hisobot 6. Ocherk 7. Faktlar majmui 8. Statistik materiallar majmui 9. Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui
Hajmi	1. Qisqa (lo`nda) 2. O'rtacha miqdordagi 3. Katta (uzun)
Tuzilmaviy o`ziga xos xususiyatlari	1. Tuzilmaga keltirilgan 2. Tuzilmaga keltirilmagan

O'quv topshirig`ini taqdim etish usuli	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Savolli</li> <li>2. Keys-topshiriq</li> </ol>
Didaktik maqsadlari	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Muammo, echim yoki konsepsiyanı izohlash</li> <li>2. Treningli, o'quv mavzui/predmeti bo'yicha malaka va ko'nikmalar orttirishga mo'ljallangan</li> <li>3. Tahlil va baholashga o'rgatuvchi</li> <li>4. Muammoni ajratish va echish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o'rgatuvchi</li> <li>5. Vaziyat sub'ekti rivojining yangi strategiyalari va yo'llari, yangicha baholash uslublari va shu kabilarni ishlab chiqishga rag'batlantiruvchi</li> </ol>
Rasmiylashtirish usuli	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bosma</li> <li>2. Elektron</li> <li>3. Video-keys</li> <li>4. Audio-keys</li> <li>5. Multimedia-keys</li> </ol>

## **Кейсда муаммони бериш үсуллари**

**1-усул** – муаммони кейсолог ифодалайди.

**2-усул** – вазиятдаги муаммо яққол ифодаланади, лекин бунда вазиятнинг зарур элементларидан бири (масалан, шериклар ҳақидаги) ахборот бўлмайди.

**3-усул** – матнда вазият субъектлари ўртасидаги зиддият мавҳум ифодаланади.

O'quv mashg'ulotining o'qitishning keys-texnologiyasi o'z ichiga quyidagilarni oladi: Ta'lif texnologiyasining modeli, O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi, Texnologik xaritaga ilovalar.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Metodika nima va uni kim qachon fanga kiritgan
2. Metodika nima va uning bugungi kun ta'lif tizimidagi o'rni?
3. Zamonaviy o'quv tizimida ped texnologiyalarning yutuqlari nimalarda ko'rilmoxda?

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar**

1. Ta'lif jarayoniga darajali yondashuv haqida fikr-mulohazalaringizni ayting.
2. Zamonaviy ta'lum metodlari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtiring.
3. zamonaviy ta'lif texnologiyalari bilan xotira mакtabiga asoslangan ta'lifni farqlarini belgilang.
4. Ta'lif jarayonida tashxisning o'rni haqidagi fikrlaringiz bilan o'rtoqlashing.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. 163 b.
2. Azizxodжаева N.N. «Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat» CHo'lpon: 2005. 213 b.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T.: “O'qituvchi” NMIU, 2005.
4. Yo'ldoshev Q. va b.. Adabiyot o'qitish metodikasi.

5. Mirzaev S. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. -T.: "SHarq" NMK, 2005.
6. Qosimov B. va b.. Milliy uyronish davri o'zbek adabiyoti tarixi. –T.: “Ma’naviyat”, 2005.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Andijon: «Hayot», 2002.
8. Жо'raqulov U. Hududsiz жилва. -T.: “Yangi asr avlodи”, 2006.
9. Yo'ldoshev Q. "Alpomish" talqinlari. -T.: "Ma’naviyat", 2002.
10. Rasulov A. Talqin, tanqid, baho. –T.: “Fan”, 2006.
11. Mahmudov N. Nurmonov A. O'zbek tili nazariy grammatikasi. T.: O'qituvchi. 1995. 228-bet.
12. Tolipov O`., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. 163 b.

## **2-MAVZU. Ta’lim jarayonida ilg`or informasiyot-texnologiyalarni qo’llash metodikasi (2 soat)**


### **REJA:**

1. ORGANAYZERLAR – MUSTAQIL FAOLIYATNI TASHKIL ETISHGA QARATILGAN SXEMA VA JADVALLAR.
2. DEBAT DARSLARNI TASHKIL ETISH.
3. ADABIYOTSHUNOSLIK FANLARINI O’QITISHDAGI BA’ZI MUAMMOLAR.

**Tayanch tushunchalar:** Pedagogik falsafa, konstruktiv pedagogika, olamni o’zlashtirish va ta’lim jarayoni, ta’limning inson bilish yo’siniga mufoiq bo’lishi kerakligi, o’qitish kechimi uchun haqiqatning o’zi emas, unga kelish jarayoni muhimligi, kichik guruh, o’quvchilar mas’ulligi, birgalikda ta’lim, faollikka undovchi ta’lim usuli, interfaollik birgalikda ishlashni taqozo qiladi

### **ORGANAYZERLAR - MUSTAQIL FAOLIYATNI TASHKIL ETISHGA KARATILGAN SXEMA VA JADVALLAR**

«Venn» diagrammasi - 2 ob’ektni, tushunchani, g’oyani, hodisani taqqoslash faoliyatini tashkil etish jarayonida ishlatiladi. Yana 3 ob’ektni, tushunchani, g’oyani, hodisani taqqoslash faoliyatini tashkil etish jarayonida ishlatiladi. Masalan, Odil Yoqubovning “Ulug’bek xazinası” romani bilan Maqsud Shayxzodanining “Mirzo Ulug’bek” tragediyasining janriy va badiiy xususiyatlari, obrazlarning qiyosiy tahlilini berish mumkin.




### **FSMU texnikasi**

- **F** – Fikringizni bayon eting
- **S** – Fikringiz bayoniga sabab ko’rsating
- **M** – Fikringizga misol keltiring
- **U** – Fikrlaringizni umumlashtiring, xulosalang

**T-jadval** - konsepsiyaga, voqelikka, ob’ektga nisbatan munosabat bildirish uchun qo’llaniladi. Yakka, juftlikda yoki guruh ichida jadval asosida taqqoslash faoliyati tashkil etiladi. Masalan, nazariy ma’lumotlar bilan amaliy ko’nikma va malakalarni qiyoslash mumkin.

**«Nima uchun» texnologiyasi** – nima uchun bu muammo kelib chiqdi? Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalshtirish jarayonida qo'llash mumkin.




Muammoning sabablari aniqlanadi:

#### **MUAMMO:**

- ▶
- ▶
- ▶
- ▶
- ▶

Sabab?  
Sabab?  
Sabab?  
Sabab?  
Sabab?

**«Qanday» texnologiyasi** – qanday qilib muammoni hal etish mumkin? Muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etadi va ularni amalga oshirish usullarini ham o'rghanadi.




**«Tezkor savollar»** texnikasi - ketma-ketlikni va izchillikni o'matishga qaratilgan texnologiyadir.

Har bir darsda foydalanish mumkin, ta'lim oluvchilarning o'zlariga mustaqil ishlari uchun topshiriq shaklida ham berish mumkin.

**Konseptual jadval** texnikasi – qoida va g`oya, nazariy tushuncha va bilimlarning o`ziga xos xususiyatlari taqqoslanadi.

...tushunch alar, yondashuvlar	Tavsiflar, toifalar, xususiyatlar va boshqalar

**Klaster texnikasi** – bog`lam. Bilimlarni faollashtirishga yo`naltiradi, fikrlovchi jarayonga mavzu bo`yicha yangi assosiativ tasavvurni erkin va ochiq jalg qilishga yordam beradi. O`quv mashg`ulotining hamma bosqichlarida qo`llash mumkin.



**Toifalash jadvali** – toifalar bo`yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas. Kichik guruhlarda ajratilgan toifalar bir-biridan farq qilishi mumkin.

Toifalar				

**Pinbord texnikasi** - Inglizcha pin-mahkamlash,bord-doska so`zlaridan olingan. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashni amalgaloshish, uyushgan holda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozisiyani shakllantirishga imkon beradi. Texnikaning bosqichlari – o`qituvchi muammoni o`rtaga tashlaydi va muhokama uchun topshiriqlar beradi. Muhokama jarayonida vujudga kelgan barcha fikrlar alohida qog`ozlarga ikki so`z bilan yoziladi va qog`ozlar doskaga mahkamlanadi. YOKi bitta gap yozish ham mumkin, gaplar bir-birini mantiqan va usluban davom ettirishi

kerak. Spikerlar chiqib, o'zaro munosabatni chiziqlar bilan ko'rsatadilar va fikrlarni tizimga soladilar.


**BBB jadvali texnikasi** – mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchanlik imkonini beradi, tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim


**Insert jadvali texnikasi** - V- bilaman; (-) - to'g'ri kelmad; (+) - yangi axborot; (?) – tushunmadim.

V	+	-	?


**Baliq skeleti jadvali texnikasi** – muammoni quyi muammolarga ajratish va ular bilan bog'liq echimlarni tizimli fikrlash orqali tahlil qilish va muammolar bilan bog'liq echimlarni ifodalash ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi.



**"Pog'ona"** – tuzilmaviy-mantiqiy chizma – muammo asosida qayta fikrlash imkonini beradi. Asosiy g'oya, tushuncha muammo quyi muammolarga ajratiladi va echimlari matniy misollar bilan birga beriladi.



**Piramida chizmasi** – ma'lumotlar, nazariy ma'lumotlar, misol va dalillar, g'oya va tushunchalarni quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich taqdim etish texnikasi. Tizimli fikrlash, muhokama qilish professional tahlillash ko'nikmasi va malakalarini rivojlantiradi va faollashtiradi. Avval asosiy g'oya-vazifalar yoziladi, keyin quyi muammolar, ularning har biriga misollar keltirib shoxchalar hosil qiladilar.



## DEBAT DARSLARNI TASHKIL ETISH

Debatlar ikki xil shaklda bo'ladi: rasmiy va norasmiy. Mashg'ulotlarimizda rasmiy debatlardan foydalanamiz. Debat dasturi mulohaza va tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslanadi. Bunda o'qituvshi tomonidan reglament va qoidalar ishlab shiqiladi. Debatlar quyidagi ushta tamoyil asosida o'tkaziladi:

- Maqsad g`alaba qozonish emas, bilim va tahlillash ko'nikmalarini boyitish;
- CHindillilik va vijdonlilik majburiyatini yo'qotmaslik;
- O'zgalarning fikr-qarashlariga hurmat va ehtiromni saqlash.

Debatlar asosan **mavzu**, **tasdiqlovchi tomon**, **inkor etuvchi tomon**, **argumentlar (kuchli, ishonchli)**, **dalillar (sitatalar, faktlar, misollar)**, **chaparasta (tezkor savol-javoblar) savollar**, **o'qituvchi qarori** kabi elementlardan iborat.

### Tasdiqlovchi tomon:

- mavzuning ahamiyatini asoslaysidi;
- nutqida ishlatilgan terminlarni izohlaydi;
- jamoaning nuqtai nazarini taqdim etadi;
- oldinga surilgan masalani isbot qiladi, qiyosiy tahlil qiladi;

- qarshi jamoa a'zosiga tezkor savollar taqdim etadi.

### **Inkor qiluvchi:**

- da'vo qilingan tezisni inkor qiladi;
- o'z nuqtai nazarini taqdim etadi;
- fikr-mulohazalar, keltirilgan ma'lumotlarning zaif joylarini ko'rsatadi;
- faraz, misol, dalillar bilan qarshi jamoaning fikrlarini tiklaydi yoki rad etadi;
- tezkor savol-javoblardan foydalanadi.

Spikerlar (so`zlovchilar) nutqining quyidagi uch turi mavjud:

1. Taklif nutqi (argumentlar taqdim etiladi);
2. Inkor etuvchi yoki rivojlantiruvchi nutq;
3. Natijaviy nutq (xulosa). Tortishuvli nuqtalarga e'tibor qaratiladi.

Amaliy mashg'ulotlarni noan'anaviy shaklda o'tkazish natijasida ta'lim oluvchida quyidagi qobiliyat va ko'nikmalar rivojlanadi:

- ◊ tanqidiy fikr yuritish;
- ◊ muhim bo'lgan ma'lumotni muhim bo'limgan ma'lumotlardan ajratish hamda muammoni aniqlash;
- ◊ sabab va uning bo`lishi mumkin bo'lgan oqibatlariga baho berish va xulosa chiqarish;
- ◊ fakt va fikrlarni aniqlash va muammoni samarali echish;
- ◊ professional tahlil va talqin;
- ◊ o`zining fikr yuritish, tafakkur jarayoniga baho bera olish;
- ◊ jamoada ishslash ko'nikmasi.

Inkor etuvchi nimalarga e'tibor beradi?

- ◊ Tushunchaga berilgan ta'riflarning to'g'ri yoki noto'g'rili;
- ◊ Ta'riflarning hajmi (qisqa yoki kengligi);
- ◊ Mavzu bilan dalillarning mos kelish-kelmasligi;
- ◊ Dalillar keltirilgan manbalarning ishonarli yoki ishonarsizligi;

Ta'lim oluvchi dars jarayonida o'rganilayotgan mavzuni qayd qilishda quyidagilarga e'tibor qaratadi:

- ◊ Ko'proq ma'lumot yozib olish;

- ◊ Har bir so`zlovchining fikr, dalillarini alohida yozish;
- ◊ Reglamentni qayd qilish;
- ◊ Ayrim fikrlarga baho berish;
- ◊ Mulohazani savolga aylantirmaslik.

Debatlarda savollar biror-bir shaxsni kamsitish yoki sarosimaga tushirib qo'yish uchun emas, javob beruvchining imkoniyat va qobiliyatlarini amalda qo'llay olishlari uchun xizmat qiladi. Bunda talaba o'z fikr-mulohazalarini, tanqidiy qarashlarini bir-birlariga hamda o'qituvchiga isbotlab berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Badiiy matn tahlilida savollar faktlarga tayangan holda matn asosida tuziladi.

#### **Diagnostika uchun savollar**

N	Savollar	Fikr	Sababi
1.	YAKKA holda ishlagan qulaymi?		
2.	Kichik guruhlarda ishlagan yaxshimi?		
3.	Butun guruhda ishslash ma'qulmi?		
4.	Qancha vaqtingizni kutubxonada o'kazasiz?		
5.	Kitob bilan ishslash qulaymi? Nima uchun?		
6.	Internet tarmog'idagi elektron materiallardan foydanish qulaymi? Nima uchun?		
7.	Talaba yoki o'quvchining bilim manbai nima? (o'qituvchi berayotgan mavzular, o'zi ongli ravishda olib brogan mustaqil tadqiqotlari?)		

## **Davlat tilini o`qitishda nutq o`stirish mashg`ulotlari**

Butun koinot yaxlit bir butun bo`lganidek, inson hayoti ham, xudi shu kabi, so`z olamidan iborat butunlik ichida kechadi. So`z olami ichra yashab uning sehrini his etish, so`z taftidan ta`sirlanish, albatta, o`quvchi ruhiy-ma`naviy dunyosini boyitadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda “Adabiyot darslarida o`quvchini o`qitish mumkin emasligi, balki tarbiyalanuvchilarda o`qishga ishtiyoyq, istak uyg`otish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi hisobga olinishi”<sup>1</sup> shart. Negaki, o`qishga yuqori darajada qiziqish uyg`otish orqali har bir darsning haqiqiy ma`noda ijod bo`lishiga erishiladi.

Buning uchun dars jarayonida talabalarda quyidagi ko`nikmalarni o`stirishga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiq:

- Ma`lumotlarni to`g`ri qabul qilish.
- Nazariy va amaliy manbalar yordamida yangiliklarni aniqlash va ularni qiyosiy tahlil eta olish.
- Ma`lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan izohlay va baholay bilish.
- Natijali mehnat qilish uchun vaqtini rejalashtira olish.
- O`z fikr-mulohazalarini erkin ifodalay olish.
- O`z imkoniyati darajasini belgilay olish.
- Kichik guruhlarda ishlay bilish.
- Muammolarni bilim va hayotiy dalillar orqali echa olish, to`g`ri qarorlar qabul qilish.
- O`z nuqtai nazarlarini ilgari sura bili shva ularni dalillash.
- Adolat va o`zaro tenglik tushunchasiga sodiq bo`lish kabi bir qator ko`nikmalarni hosil qilish va ularni yanada rivojlantirish.

YUqoridagi qoidalarga amal qilgan holda men o`z tajribamda o`zbek adabiyoti bo`yicha mashg`ulotlarni talabalarni kichik guruhlarga ajratgan holda tashkil qilaman.

Bunda talabalarni lug`atlardan foydalangan holda fikrlash va asar yuzasidan o`z fikrini bir necha variantda ifodalashga o`rgataman.

Qoraqalpoq guruhlarda og`zaki va yozma nutqni o`stirish mashg`ulotlarini tashkil qilishda talabalarning o`zbek mumtoz adabiyoti haqida muayyan tasavvurga ega bo`lishlari maqsadida Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Nodirabegim kabi ulug` shoirlarimiz ijodi namunalaridan foydalanaman. Bunday matnlar yordamida talabalar o`zbek tilida mustaqil fikrlash, o`z o`y-fikrlarini yozma va og`zaki tarzda emin-erkin ifoda eta olish ko`nikmasiga ega bo`ladi.

SHuningdek, dars jarayonida reja va darslikda berilgan mavzular Bilan cheklanib qolmasdan qo`shimcha hikoya, rivoyat, she`rlarni mustaqil o`qishni tavsija etaman.

Mumtoz yozuvchi, shoir va olimlar asarlarining ko`rgazmasini tashkil qilib turaman. Bunday ko`rgazmani tashkil qilishda asosiy e`tiborni komil inson tarbiyasiga oid asarlarni tanlashga qarataman. Ko`rgazmaga nafaqat asarlarning o`zi, balki ulardan olingan quyidagicha parchalarni ham qo`yaman:

Kimki o`zluk imoratin buzdi,  
Bo`ldi naqdi fano aning muzdi.  
Ul imoratni buzmayin solik,

<sup>1</sup> Қ.Йўлдошев. ўқитувчи китоби. Т.: Ўқитувчи, 1997, 9-бет.

Bo`la olmas bu naqdg`a molik.

Agar parchalar mumtoz asarlardan olingen bo`lsa, o`quvchilarga lug`at asosida ularni tahlil qilish va qisqacha ma`nosini mustaqil ravishda izohlash topshirig`ini beraman. Masalan, yuqoridagi she`rdan o`rin olgan<sup>2</sup> imorat arabcha so`z bo`lib, “katta uy, bino” ma`nolari bilan birgalikda istilohiy ma`noda o`zluk imorati, ya`ni nafsi qurgan imoratni anglatadi.

**Naqd** arabcha – naqd, boylik;

**Muzd** arabcha – ish haqi, xizmat haqi, to`lov;

**Solik** arabcha – yuruvchi, yo`lovchi, so`fiy;

**Fano** arabcha – fano, yo`qlik, o`tkinchi Dune yoki o`zlikni yo`qotish;

**O`zluk** – o`z shaxsiyati, vujudi, borlig`i;

**Molik** arabcha – ega, sohib, xo`jayin.

Lug`at asosida talabalar berilgan parchaning mazmunini quyidagicha izohlaydilar:

Kimki vujudida hokimlik qilishni istayotgan, turli yomonliklarga etaklovchi nafsi engsa, ya`ni nafsi qurgan imoratni buzsa, o`tkinchi dunyo boyliklari uning uchun ikkinchi darajali narsaga aylanadi.

Shu tariqa matnni tahlil qilish natijasida talabalarni badiiy va ilmiy asarlarni maqsadli o`qishga yo`naltirishga harakat qilaman. Badiiy matn talabalarda go`zallikni his qilish va anglash, tafakkur sarhadlarini kengaytirish, odamlar qalbini tushunish, ularning shodlik va tashvishlari, kulfat va quvonchlariga sherik bo`lish hislarini tarbiyalash imkoniyatini beradi.

### **Badiiy tahlilda bahs-munozaradan foydalanish**

Ttalabalarga badiiy asarni tahlil qilishni o`rgatishda bahs-munozara usulidan keng foydalanish mumkin. Bahs-munozarani muayyan reja asosida tashkil qilish, bunda asosiy e`tiborni talabalarda mulohaza va tanqidiy fikr yuritish ko`nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Bahs-munozarada talabalar quyidagi tartib-qoidalarga rioya qilishadi.

- maqsad g`alaba qozonish emas, tahlil qilish ko`nikmalariga ega bo`lish.
- haqqoniy bahs yuritib, adolatli bo`lish.
- o`zgalarning fikrlarini hurmat qilish.

Bahs-munozara muayyan mavzu asosida o`tkazilib, unda talabalar tasdiqlovchi va inkor qiluvchi guruhlarga bo`linadilar.

### **Tasdiqlovchi guruh:**

- mavzuning ahamiyatini asoslaydi;
- nutqida ishlata digan atamalarni izohlaydi;
- jamoaning nuqtai nazarini bayon etadi;
- oldinga surilgan masalani dalillar asosida bayon qiladi;
- inkor etuvchi guruh a`zosiga tezkor javoblarni talab etuvchi savollar beradi;

### **Inkor etuvchi guruh:**

- guruh a`zolari nomidan bayon etilgan tezisni inkor qiladi;
- dalillarning asossizligini ko`rsatadi;
- tasdiqlovchi guruhning rad etiladigan fikrlari noro`g`rilagini isbotlaydi;

<sup>2</sup> Б.Ҳасанов. навоий асарлари учун қисқача лугат. Т.: Фан, 1993. навоий асарлари лугати. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов. т.:Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1972.

- ayrim hollarda qarshi savollar beradi;

Ushbu usul talabalarda qiziqish uyg`otadi va ularni faollashtiradi. Bundan tashqari ularda quyidagi ko`nikma va malakalarni shakllantirish imkoniyatini beradi:

- tanqidiy fikr yuritish;

- muhim bo`lgan ma'lumotni muhim bo`lmagan ma'lumotlardan ajratish hamda muammoni aniqlash;

- sabab va uning bo`lishi mumkin bo`lgan oqibatlariga baho berish hamda xulosa chiqarish;

- fakt va mulohazalar asosida o`z fikrnini dalillash va muammoni echishning samarali usulini topish;

- tahlil va talqin etish mahoratini o`stirish.

Bahs-munozara yuritishda talabalar quyidagi masalalarga e'tibor berishadi:

- tushunchaga berilgan tariflarning to`g`ri yoki noto`g`riligi;

- mavzu va dalillarning bir-biriga mos kelish-kelmasligi;

- dalillar keltirilgan manbalarning ishonarli yoki ishonarli emasligi.

Bahs-munozaralarda savollar qarshi tomonni sarosimaga solib qo'yish uchun emas, balki javob beruvchining imkoniyat va qobiliyatlarini amalda qo'llay olishi uchun xizmat qilishi kerak. Bunda talaba o`z fikr-mulohazasini, tanqidiy qarashini isbotlab berish imkoniyatiga ega bo`lishi kerak.

## **ADABIYOTSHUNOSLIK FANLARINI O`QITISHDAGI BA'ZI MUAMMOLAR**

Zamonaviy ta`lim tizimida adabiyotshunoslik fanlarini o`rganish va o`qitish alohida o`rin tutadi. Ushbu ishimizda yigirma yillik pedagogik tajribamizdan kelib chiqqan holda ba`zi mulohazalarimizni bayon etishga harakat qilamiz.

Mumtoz ilmi adabda ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya kabilar alohida fan sifatida o`rganilgan. Bularni o`rganmasdan mumtoz badiiy asarlarni tahlil qilish imkoniyati yo`q. Hozirgi kunda ham mumtoz adabiy asarlar badiiy adabiyotimiz hajmining asosiy qismini tashkil qiladi. Demak, yuqorida ko`rsatilgan fanlarni o`rganish filologlar uchun talab darajasidan tushganicha yo`q.

SHuningdek, ko`rgazmalilik masalasi. Darslarda ko`rgazmalilikning turli xillaridan foydalanish mumkin. Masalan, rasmlar ko`rgazmasi, kitoblar ko`rgazmasi, jonli burchak va boshqalar. O`qituvchining vatman qog`ozlarda har xil jadvallardan foydalangan holda darslar tashkil qilishi ham ko`rgazmali dars sirasiga kiradi. Bunday ko`rgazmalilik hozirgi kunda texnik axborot vositalari yordamida amalga oshirilmoqda, bu esa elektron ko`rgazmalilik hisoblanadi, faqat bu erda o`qituvchi va talaba uchun qulayliklarning oshganini va qog`oz shaklning elektron (slayd) shakliga o`tganini ko`ramiz.

Slaydlarda vaqtimiz tejalishi bilan birga har xil ma'lumotlarb topshiriqlarning turli xillaridan foydalanishimiz mumkin. Aynan, dars rejasi, adabiyotlar ro`yxati, savol va topshiriqlar, asosiy tushuncha va lug`atlarni qisqa vaqt ichida namoyish qilish va tushuntirish imkoniyatiga ega bo`lamiz. Lekin bu dars materiallarining hammasini slaydlarga chiqarish degani emas. Har qanday

sharoit va har qanday zamonda kitob - badiiy yoki ilmiy matn ustida ish, ya’ni badiiy va ilmiy tahlil birinchi o`rinda turishi lozim. Negaki, matnni o`zlashtirish – uqish, his qilish tahlil va talqinsiz amalga oshmaydi. Badiiy tahlilni amalga oshirish uchun esa o`qituvchi va talabidan ma’lum darajada bilim, ko`nikma va malaka talab etiladi. Masalan, «O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi» fanini o`rganish, mumtoz adabiyot namunalarini o`qish va tahlil qilish uchun folklorni, adabiyot nazariyasini, din va tasavvuf bilan bog`liq ma’lumotlarni, tushunchalarni bilish, tushunish; din bilan tasavvufning bir-biridan farqli va bog`liq tomonlarini; tasavvuf ta’limoti bilan tasavvuf adabiyotining farqli va o`xshash tomonlarini; ilmiy va badiiy adabiyotni; butun dunyo adabiyoti orasidagi bog`liqlikni; og`zaki va yozma adabiyotdagi diniy, tasavvufiy, mifologik obrazlar, tushunchalar, ramz va timsollarni tahlil qila olish, asarda ishlatilgan arabcha va forscha so`zlar, istilohlarning mohiyatini tushunish uchun talaba va o`qituvchidan katta bilim, malaka va ko`nikmalar talab qilinadi. Bunday bilim va ko`nikmalarga esa ko`p yillik mehnat orqali erishiladi. Alisher Navoiyning «Farhod va SHirin»<sup>3</sup> dostonini filologik tahlil qilish qachonki mana shu asar matni o`qilib, doston kompozisiyasi, syujeti, obraz va timsollar olami o`rganib chiqilgan paytdagina amalga oshiriladi. Asar matni o`qilmas, lug`atlar yordamida tushunarsiz so`z va istilohlar mohiyati chaqilmas, shakli va mazmuni badiiy tahlil qilinmas ekan har qanday ko`rgazmalik, tarqatma materiallar, test topshiriqlari o`z vazifasini bajara olmaydi.

Bu mulohazalarni nafaqat badiiy asarlarga nisbatan, balki ilmiy asarlarga nisbatan ham aytishimiz mumkin. «Hozirgi o`zbek adabiy tanqidchiligi tarixi» fanini o`zlashtirish uchun ikki tomonlama matnlarni o`rganish talab qilinadi. Masalan, Ozod SHarafiddinovning «Ki, sen ham hur tug`ilg`onson»<sup>4</sup> tadqiqot maqolasini o`rganish uchun pedagog birinchi navbatda shoir CHo`lpon ijodini atroflicha o`rgangan, tahlil qilgan bo`lishi, CHo`lpon hayoti va ijodining o`rganilishi, talqin va tahlillarni ham o`rganib chiqqan bo`lishi talab qilinadi – bu esa filologik tahlillar asosida amalga oshiriladi. Mana shu vaqtdagina talabaga olim ijodini, tadqiqotni o`rganishga yo`naltiruvchi topshiriqlar bera olishimiz mumkin.

Endi talabaga qanday talablar qo`yiladi? Talaba bu tadqiqotni o`qib tahlil qilishi, mustaqil fikr bildira olishi uchun oldingi kurslarda adabiyotshunoslik fanlarini talab darajasida o`rgangan bo`lishi lozim. Qiyyosiy tahlil, albatta, o`z samarasini beradi. O.SHarafiddinovning aynan shu mavzudagi mustaqillikdan oldin yaratgan ilmiy ishlari bilan boshqa adabiyotshunoslarning aynan shu mavzudagi ishlarini ham qiyyosiy o`rganish talabaning bilim va ko`nikmalarini yanada mustahkamlaydi.

Bugungi va kelajak avlodning madaniyati va ma’naviyatini to`laqonli tarzda shakllantirish uchun adabiyotshunoslik fanlarini har qanday o`quv maskanida o`tkaziladigan «Adabiyot» darslarida filologik tahlilni badiiy va

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. T.: 2006.

<sup>4</sup> О.Шарафиддинов. Маънавий камолот йўлларида. Т.: 2001.

ilmiy matnlar asosida professional darajada amalga oshirish davr talabi, deb hisoblaymiz.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Venn texnologiyasi nima?
2. Sxemalarda falsafiy qarashlarni toping
3. Badiiy tahlil nima va uni misol orqali tushintirib bering?

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Ta’lim jarayonida talaba bilimi va dunyoqarashi tushunchalarini izohlang.
2. O’zbek tili darslarida talabaning og’zaki nutqini shakllantirish uchun pedagogik jadval, organayzerlardan foydalanishning o’rni, ahamiyati haqida aytинг.
3. Ta’lim jarayonida faollikni oshirishga yordam beruvchi metod, vositalar, psixologik yondashuv haqida gapiring.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tolipov O’., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. 163 b.
2. Azizxodжаева N.N. «Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat» CHo’lpon: 2005. 213 b.
3. Mahmudov N. Nurmonov A. O’zbek tili nazariy grammatikasi. T.: O’qituvchi. 1995. 228-bet.
4. Tolipov O’., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. 163 b.
5. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. T.: 2006.
6. O.Sharafiddinov. Ma’naviy kamolot yo’llarida. T.: 2001.

### **3-MAVZU. Oliy ta’limda ma’ruza o’qish metodikasi va ma’ruzalarning turlari (2 soat)**

**REJA:**

1. MA’RUZANING TUZILISHIGA KO`RA XUSUSIYATLARI.
2. DARS NATIJALILIGINI TA’MINLOVCHI OMILLAR.

**Tayanch tushunchalar:** *ma’ruza, reja, ma’ruza xarakteri, mavzu va hajmi, konsept yuritish texnikasi, ma’ruza turlari, ma’ruza darslarda ko’rgazmalilik, zamонавиј pedagogik va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishning imkoniyat, zaruriytлари.*

### **MA’RUZANING TUZILISH KO`RA XUSUSIYATLARI**

Ma’ruzaning tuzilishi – reja, kalit so’zlar, adabiyotlar ro’yxati, tezkor savollar, lug`atlar. Har bir ma’ruza bir-biridan farq qiladi. Farqli jihatlar ma’ruza xarakteri, mavzu ko`lamiga bog`liq.

**REJA** – umumiy shakl va mazmun. Reja aytmoqchi bo’lgan ma’lumot va fikrlar haqida to’liq tushuncha bera oladi. Rejaga ma’ruzaning asosiy g’oya va mazmuni kiritiladi, rejada aks etgan masalalar keyinchalik imtihon savollarini tuzish uchun xizmat qilishi lozim.

**Maqsad va vazifalar.** Ma’ruzachi vazifasi – tinglovchini fikrlash va konsept qilishga yo`naltirish. Tinglovchi vazifasi – tinglash, fikrlash, qayta o’zlashtirish, qisqacha yozib olish.

**Konspekt olishga yordam beruvchi omillar** - Temp, ovoz toni, ifodalilik, takroriylik, pauza, taxtada qayd qilish, ko’rgazmalilik, vaqt reglamentiga qat’iy rioya qilish.

**Konspekt yuritish metodi** - imloviy savodxonlik, xat bezaklari (xat boshining ajralib turishi, asosiy g’oya, tayanch tushuncha, istilohlar va fikrlarni alohida belgilab qo`yish, kalit so’zlarni ajratish, xulosalarni alohida belgilashda har xil ranglardan foydalaniadi).

**Pedagogik texnikalar** - xonada to`g`ri harakatlanish, bir joyda qotib qolmaslik, kafedra yoki stolga yopishib qolmaslik, ovoz toni va tempini o’zgartirib turish.

### **DARS NATIJALILIGINI TA’MINLOVCHI OMILLAR**

**Induktiv metodlar:** misollar, faktlar ilmiy xulosalarga etaklashi zarur. Tinglovchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi, salomatligi, qiziqishlari, temperamentlari hisobga olinishi lozim.

**Deduktiv metodlar** - aniq misollar asosida kelajakda kelib chiqadigan umumiyl natijalarni tahlillash.

*Ma’ruzaning quyidagi shakllariga to`xtalamiz:*

- Kirish ma’ruzasi;
- Ma’lumotli ma’ruza (ma’ruza axborot);

- Umumlashtiruvchi qisqa ma'lumotli (sharhlovchi);
- Muammoli ma'ruza;
- Ko'rgazmali (vizual ma'ruza);
- Binarli (ikki kishilik) ma'ruza;
- Oldindan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza;
- Anjuman (ma'ruza konferensiya);
- Maslahat ma'ruza.

**Umumlashtiruvchi qisqa ma'lumotli ma'ruza** kurs yoki bo'lim oxirida o'qiladi, nazariy ma'lumotlarni to'liq qamrab oladi. Kurs yoki bo'limlarda o'rganilgan masalalarini umumlashtirib xulosalar qilinadi.

**Axborotli ma'ruza {ma'lumotli}** - ma'ruzaning odatdag'i an'anaviy turi. Pedagogik vazifasi: o'quv ma'lumotlarini bayon qilish va tushuntirish.

**Sharhlovchi ma'ruza** - bayon qilinayotgan nazariy fikrlarning o'zagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bo'limlarning konseptual asosini tashkil etadi. Pedagogik vazifasi: ilmiy bilim va ko'nikmalarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning o'zaro aloqadorlik mohiyatini ochish.

**Kirish ma'ruza** - fan to'g'risida yaxlit tasavvur hamda ma'lum yo'nalishlar beradi. Pedagogik vazifasi: ta'lim oluvchini ushbu fanning vazifalari va maqsadi bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgarlik tizimida uning o'rni va rolini belgilash, kursning qisqacha sharhini berish, fanning yutuqlari va taniqli olimlar bilan tanishtirib, kelajakdag'i izlanishlarning yo'nalishini belgilash, tavsiya qilingan o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini berish, hisobot va baholashning muddatlari va shakllarini belgilash.

**Vizual ma'ruza** - ma'ruzaning mazkur shakli vizual materiallarni namoyish etish hamda ularga aniq va qisqa sharhlar berishga qaratilgan. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarini o'qitishning texnik vositalari - audio, videotexnika yordamida berish.

**Binar (ikki kishilik) ma'ruza** - bu ma'ruza ikki o'qituvchining yoki ikki ilmiy maktab namoyondasining yoki o'qituvchi va ta'lim oluvchining dialogidan iborat. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarining mazmunini yoritish.

**Avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza** – mazmuni, uslubiyati va imloviy xatolarni izlashga mo'ljallangan, ma'ruza oxirida tinglovchilar tashxisi o'tkaziladi va qilingan xatolar tekshiriladi. Pedagogik vazifasi: yangi materiallar mazmunini yoritish, berilgan ma'lumotni doimiy nazorat qilishga ta'lim oluvchilarni rag'batlantirish.

**Ma'ruza konferensiya {anjuman}** - oldindan qo'yilgan muammo va bayonotlar tizimi (5-10 minut)dan iborat ilmiy-amaliy dars sifatida o'quv dasturi chegarasida o'tiladi. Bayonotlar birgalikda qo'yilgan muammoni yoritishga qaratilishi kerak. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi mustaqil ishlar va talabalarning ma'ruzalariga yakun yasab, to'ldirib, aniqlashtirib xulosa qiladi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotining mazmunini yoritish.

**Maslahat ma'ruza** – mashg'ulot turli senariylar yordamida o'tiladi. Masalan: «Savol-javob» senariysi - ma'ruzachi tomonidan butun kurs bo'yicha yoki alohida bo'lim bo'yicha o'tkaziladi.

«Savol-javob-munozara» senariysi - izlanishga imkon beradi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirishga qaratilgan.

## Ma'ruzaning tuzilishi

Har bir ma'ruza bir-biridan farq qiladi. Farqli jihatlar ma'ruza xarakteri, mavzu ko'lamiga bog'liq.



## REJA - umumiy shakl va mazmun

Reja aytmoqchi bo'lgan ma'lumot va fikrlar haqida to'liq tushuncha bera oladi.

Rejaga ma'ruzaning asosiy g'oya va mazmuni kiritiladi, rejada aks etgan masalalar keyinchalik imtihon savollarini tuzish uchun xizmatqilishi lozim.




## Umumlashtiruvchi qisqa ma'lumotli

Kurs yoki bo'lim oxirida o'qiladi, nazariy ma'lumotlami to'liq qamrab oladi. Kurs yoki bo'limlarda o'rganilgan masalalami umumlashtirib xulosalar qilinadi.



## Ma'ruza axborot

Ma'ruzaning odatdagи an'anaviy turi. Pedagogik vazifasi: o'quv ma'lumotlarini bayon qilish va tushuntirish.



## Sharhlovchi ma'ruza

Bayon qilinayotgan nazariy fikrlarning o'zagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bo'limlarning konseptual asosini tashkil etadi. Pedagogik vazifasi: ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning o'zaro aloqadorligini to'chish.



## Kirish ma'ruza

Fan to'g'risida yaxlit tasavvur hamda ma'lum yo'nalishlar beradi. Pedagogik vazifasi: o'quvchini ushbu fanning vazifalari va maqsadi bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgartlik tizimida uning o'mi va rolini belgilash, kursning qisqacha sharhini berish, fanning yutuqlari va tanigli olimlar nomlari bilan tanishtirib, kelajakdagi izlanishlarning yo'nalishini belgilash, tavsiya qilingan o'quv-uslubiy adabiyyotlar tahlilini berish, hisobot va baholashning muddatlarini va shakllarini belgilash.




## Vizual ma'ruza

Ma'ruzaning mazkur shakli vizual materiallami namoyish etish hamda ularga aniq va qisqa sharhlar berishga qaratilgan. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarini o'qitishning texnik vositalari va audio, videotexnika yordamida berish.



## Binar (ikki kishilik) ma'ruza

Bu ma'ruza ikki o'qituvchining yoki ikki ilmiy maktab namoyondasining, o'qituvchi talabaning dialogidan iborat. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarining mazmunini yoritish.



## Avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza

Xatolami izlashga mo'ljallangan mazmuni va uslubiyatida, ma'ruza oxirida tinglovchilar tashxisi o'tkaziladi va qilingan xatolar tekshiriladi. Pedagogik vazifa: yangi materiallar mazmunini yoritish, berilgan ma'lumotni doimiy nazorat qilishga o'quvchilarni raq'batlantirish.



## Ma'ruza konferensiya

Avvaldan qo'yilgan muammo va bayonotlar tizimi (5-10 minut)dan ibora ilmiy-amaliy dars sifatida o'quv dasturi chegarasida o'tiladi. Bayonotlar birgalikda qo'yilgan muammoni yoritishga qaratilishi kerak. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi mustaqil ishlar va talabalarning ma'nuzalariga yakun yasab, to'ldirib, aniqlashtirib xulosa qilladi. Pedagogik vazifa: yangi o'quv ma'lumotining mazmunini yoritish.



## Maslahatma'ruza

Turli senariylar yordamida o'tish.  
Masalan:

«Savol-javob» - ma'rutzachi tomonidan butun kurs bo'yicha yoki alohida bo'limga bo'yicha savol-javob o'tkaziladi.

«savol-javob-munozara» - izlanishga imkon beradi. Pedagogik vazifa: yangi o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirishga qaratilgan.



## Maqsad va vazifalar

- Ma'rutzachi vazifasi - tinglovchini fikrlash va konsept qilishga yo'naltirish.
- Tinglovchi vazifasi - tinglash, fikrlash, qayta o'zlashtirish, qisqacha yozib olish.



## Konspektolishga yordam beruvchi omillar

Temp, ovoz toni, ifodalilik, takroniylik, pauza, taxtada qayd qilish, ko'rgazmalilik, vaqt reglamentiga qat'iy rivoja qilish.



## Konspektyuritish metodi

Imloviy savodxonlik, xat bezaklari (xat boshining ajralib turishi, asosiy g'oya va fikrlami alohida belgilab qo'yish, kalit so'zlamni ajratish, xulosalami alohida belgilash, har xil ranglardan foydalanish).



# Pedagogik texnikalar



Xonada **to'g'ri** harakatlanish, bir joyda qotib qolmaslik, kafedra yoki stolga yopishib qolmaslik, ovoz toni va tempini o'zgartirib turish.



## Nazorat savollari:

1. Ma'ruzalar turlari nechaga bo'linadi?
2. Pedagogika texnologiyalari deganda nimani tushinasiz?

## Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Ma'ruza turlarining pedagogik jarayonda ahamiyati haqida ayting.
2. Ma'ruza darslarda ko'rgazmalilikning tur va shakllaridan foydalanishning talablari haqida gapiring.
3. Ta'lim jarayonida pedagog va talabaning vazifalari.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizzodjaeva N.N. «Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat» CHo'lpon: 2005. 213 b.
2. Yo'ldoshev Q. va b.. Adabiyot o`qitish metodikasi.
3. Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Andijon: «Hayot», 2002.
4. Rasulov A. Talqin, tanqid, baho. –T.: “Fan”, 2006.
5. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. 163 b.
6. Rahmonov N. Mumtoz adabiyot namunalari. –T.: “Fan”, 2005.

## **AMALIY MASHG`ULOTLAR MAVZUSI VA MAZMUNI**

Tinglovchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda kasbiy ko`nikmalarini rivojlantirishga doir amaliy mashg`ulotlarni “Kichik guruhlarda ishslash”, “Muammoli vaziyat”, “Davra suhbati” kabi ta’lim metodlaridan foydalanilgan holda tashkil etish ko`zda tutilgan.

### **1-MAVZU: Metodika tushunchasi. Oliy ta’limda o`qitishning metodlari (2 soat)**

#### **Reja:**

1. Adabiy ta’lim va didaktik tahlil.
- 2.O`quv tahlilida tur va janrlarni hisobga olish.

**Tayanch tushunchalar:** *Adabiy ta’lim va didaktik tahlil – ma’naviy tarbiya vositasi, o`quvchi shaxsi shakllanishida badiiy tahlilning o`rni, tahlil bosqichlari, tahlilni tashkil etish va unga o`quvchilarни qatnashtrishda yosh xususiyatlarining o`rni, o`quv tahlili tamoyillari, didaktik tahlilning qatnashchilar tarkibi va miqdoriga ko`ra turlari.*

### **ADABIY TA’LIM VA DIDAKTIK TAHLIL.**

Badiy asarni to`g`ri idrok qiladigan, uni tushunadigan, ta’sirlanadigan va tahlil qila biladigan o`quvchini tayyorlay olgan muallimgina maqsadiga erishgan hisoblanadi. CHunki dasturda o`rganish ko`zda tutilgan adabiy materiallarni shunchaki o`qib ketaverish bilan adabiyot darsi yuzaga kelmaydi. YOshi kichik va orttirgan hayot tajribasi juda kam, badiiy didi etarli shakllanmagan o`quvchilar badiiy asarni mutlaqo teskari tushunishlari ham mumkin. SHu bois badiiy asar tahliliga katta e’tibor zarur.

Badiiy tahlil a) **ilmiy - filologik;** b) **o`quv - didaktik** singari ikki katta turga bo`linadi.

O`quv tahlilidan maqsad o`rganiladigan badiiy asarni to`g`ri qabul etish orqali o`quvchilarda ezgu shaxslik sifatlarini shakllantirishdan iboratdir. Didaktik tahlilning vazifalari badiiy asarning o`ziga xosligi, jozibasi va ta’sir qilish sabablarini aniqlash orqali talabalarda ta’sirchan qalb, hassos tuyg`ular, sog`lom estetik did, ravon va ifodali nutq shakllantirishdan iboratdir. SHunga ko`ra, *o`quv tahlili badiiy asar matnining hayotiy va badiiy mantig`i hamda estetik jozibasini kashf etish orqali o`quvchilarda barkamol shaxsga xos ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyatdir* tarzida ta’rif berish mumkin.

Har qanday asarning o`quv tahlilida har bir o`quvchi individual tarzda o`tashi kerak bo`lgan uch bosqich, albatta, bosib o`tiladi: 1) asar bilan tanishish; 2) asarni tahlil qilish; 3) tahlilni umumlashtirish. Birinchi bosqichda asar o`qituvchining ijrosida idrok etiladi. Bunda o`quvchi, shunchaki eshituvchi

bo`lmasligi, balki darslikdagi matnni kuzatib borish bilan bиргаликда uning e`тiborini tortgan o`rinlarini belgilab borishi lozim. Иккинчи bosqichda asarning badiiy o`ziga xos jihatlari matndan so`ng berilgan va o`qituvchi tomonidan qo`shimcha tuzilgan savol-topshiriqlar yordamida o`рганилади. Bu bosqichda o`quvchilar asar qahramonlari xatti-harakatlariga akseologik yondashishlari saboqning tarbiyaviy yo`nalishiga olib keladi. Uchinchi bosqichda har bir o`quvchi qilgan kashfiyotini o`z kuzatishlariga tayanib umumlashtiriladi. Bunda har bir o`quvchi o`zicha asar, unda tasvirlangan voqeа-hodisalar, qahramonlar, asarning badiiy jihatlari borasidagi fikrlarini tizimga soladi.

O`quv tahlili bu kechimni amalga oshirishda qatnashadigan o`quvchilar miqdoriga ko`ra: a) individual - yolg`iz; b) guruhiy; v) umumiу (frontal) singari uch turga bo`linadi. Sinfdagи har bir o`quvchiga alohida matn ustida ishlasa yoki bir matnning alohida jihatlarini topish bilan shug`ullanib, u bu ishni yolg`iz o`zi amalga oshirsa, **individual** (yolg`iz) tahlil yuzaga keladi. Sinfdagи o`quvchilar qaysidir bir belgilariga ko`ra ma'lum guruhlarga ajratilsa va asar tahlili ana shu guruh ichida amalga oshirilsa, **guruhiy** tahlil bo`ladi. Gurhdagi barcha o`quvchilarga bir xil baho qo`yiladi. Biror badiiy asar o`qituvchi rahbarligida butun sinf bilan bиргаликда amalga oshirilishi **umumiу** yoki frontal tahlilni yuzaga keltiradi.

## O`QUV TAHLILIDA TUR VA JANRLARNI HISOBGA OLİSH

O`qituvchi har qanday adabiy turga mansub asarlar o`рганилагандага ham o`quvchilarni matndan so`ng berilgan savol-topshiriqlar bilan ishslashga o`rgatishi lozim. Mahorat bilan tuzilgan savol va topshiriqlar badiiy matnni ma`naviy energiyaga aylantirishi, ularning zamiridagi ma`nolarni kashf etishga kalit bo`lishi mumkin. Agar darslikdagi savol-topshiriqlar o`qituvchi nazarida matn tahlili uchun etarli bo`lmasa, uning o`zi tahlillash uchun maxsus savol-topshiriqlar tuzishi kerak. Ko`pincha adabiyot o`qituvchilari savol tuzib olishga jiddiy ahamiyat berishmaydi. Ular matn mohiyatini ochishga qaratilgan savollarni tahlil jarayonida, o`quvchilar bilan muloqotga kirishish asnosida tuzaman, deb o`ylashadi. Natijada, yo`l-yo`lakay tuzilgan savollarning saviyasi keragiday chuqur va aniq bo`lmaydi. Savol va topshiriqlar aniq bo`limgani oqibatida tahlil ham konkret bo`lmay, matndan ma`no chiqarish, uning jozibasini his qilish borasida o`quvchilar umumiylilikka, taxminiylikka o`рганиб qolishadi. Nimalar haqdadir gapirib, o`zi va o`zgalarni chalg`itishga urinishadi, badiiy asarning matnnini o`qimay turib, u to`g`rida fikr aytish mumkin deb o`ylashadi. Чунки savol konkret berilmagach, javob ham shunga yarasha bo`ladi.

O`qituvchi savol tuzishga qanchalik jiddiy yondashsa, bolalarning asarni o`рганишлари ham shunchalik muvaffaqiyatlар bo`ladi. Har bir savol asarning qaysi jihatni o`рганишлени ko`zda tutishi, o`quvchi berishi mumkin bo`lgan javobni ham hisobga olishi kerak. Bolaning javobi keyingi savolni keltirib

chiqarsa, juda yaxshi bo`ladi. Savollar asarni o`rganishdagi eng muhim jihatlarni o`z ichiga olishi zarur. O`quv tahlilida savollar a) faktologik va b) konseptual kabi ikki turga bo`linadi.

Faktologik savollar asar mazmuni va qahramonlari holatiga xos dalillarni esga tushirishga qaratilgan bo`lib, asosan asarning o`quvchilar esida qanchalik qolganini aniqlashga xizmat qiladi. Konseptual savollar tasvir va qahramonlarning badiiy hamda hayotiy yo`riqlarini, o`zaro munosabatlar sababi va holatini aniqlashga, personajlar xatti-harakatlariga akseologik baho berishga, o`zini ular o`rniga qo`yib ko`rishga, yozuvchining mahorati namoyon bo`lgan o`rnlarni tayin etishga qaratilgan bo`ladi.

O`rganilayotgan badiiy asarni didaktik tahlil qilishda o`quvchilarning yosh xususiyatlarini ham, adabiy asarning janrini ham hisobga olish kerak. Ularga she`riy shakllar, shoir mahorati, uning lirik obraz yaratishdagi o`ziga xosligi haqida gapirib o`tirish ortiqcha. Ularga she`r juda ta`sirli qilib ifodali o`qib berilib, asarning tarbiyaviy yo`nalishi ko`rsatilsa, she`riy asardagi badiiy unsurlar sezdirilsa kifoya.

Ilmda **tamoyil** degan tushuncha bo`lib, u **biror faoliyatning yuzaga kelishida amal qilinishi shart bo`lgan talablarni** anglatadi. SHu shartlarga amal qilinmasa, faoliyat to`laqonli holda yuzaga kelmaydi. O`quv tahlilida ham amal qilinishi shart bo`lgan bir qator tamoyillar borki, ularga rioya etilmay turib, kutilgan natijaga erishib bo`lmaydi. Bu tamoyillarning assosiyalari quyidagilardir:

- 1) har qanday tahlilning shaxsiy mulohaza ekanligi;
- 2) to`liq tahlilning bo`lishi mumkin emasligi;
- 3) asar bo`yicha bildiriladigan har qanday fikr faqat asar matnidan keltirib chiqarilishi lozimligi;
- 4) badiiy asarga yaxlit hodisa tarzida yondashish zarurligi;
- 5) tahlilda asarning tur xususiyatlari hisobga olinishi kerakligi;
- 6) tahlil yuzasidan aniqlangan ilmiy haqiqatning o`zidan ko`ra unga etib kelish kechimi muhim ekani;
- 7) biror asar bo`yicha butun sinf yoki o`quvchilar guruhining o`qituvchi bilan bir xil fikrga kelishi shart emasligi.

Amaldagi metodika badiiy asarlarni o`quv tahliliga tortishning quyidagi yo`llari borligini ta`kidlaydi: 1) Muallifga ergashib yoki yaxlit o`rganish: 2) Obrazlar bo`yicha tahlil. 3) Muammoli tahlil.

Badiy asarni **yaxlit yoki muallifga ergashib** tahlil qilish usuliga ko`ra, badiiy asar o`rtta mifik yoshidagi o`quvchilarning xarakter xususiyatlarini, psixologik taraqqiyot darajalarini, pedagogik tayyorgarligini hisobga olgan holda ishlatalib, matndagi voqealarga katta e'tibor beriladi. CHunki bu sinflardagi o`quvchilar badiiy asarga sof san'at hodisasi tarzida qarashga, ma`naviy muammolar haqida mulohaza qilishga, falsafiy xulosalar chiqarishga unchalar ham moyil emas. Bu yoshdagи bolalarga voqeа muhimroq. Demak, o`qituvchi voqeа, syujet tasviri yoki ifoda etilgan fikrlar salmog`iga e'tibor qaratish orqali asarni tahlil qilishi zarur.

Badiiy asarlarni o`rganishning keng tarqalgan usullaridan biri uni **timsollar bo`yicha o`rganishdir**. Badiiy adabiyotdagi asosiy unsur obraz ekani bejiz emas. Adabiy asarni o`rganishning bu yo`li uni istalgan sinf o`quvchilariga tatbiq etish mumkinligi bilan ajralib turadi.

Adabiyot darslarini adabiyotga doir bilimlarni o`zlashtirish yoki mafkuraviy yo`nalishdagi matnlarni o`rganish vositasi deb tushunish xatoligini, adabiy asar o`zganing holatini tuyish orqali o`zini taftish qilishga odatlantirish omili ekanini mashhur metodist olim S. Dolimov domla o`tgan asrning 60-yillaridayoq anglab etgan edi. Uning: “*Badiiy adabiyot o`quvchilarining tasavvurini kengaytiradi, ularning ko`z oldida yangi dunyo, yangi hayot ochadi, ularni xilma-xil davralarga olib kiradi, har xil odamlar... bilan tanishtiradi. ...badiiy adabiyot o`quvchilarining inson va jamiyat haqidagi tasavvurlarini kengaytirib boradi, ularning shaxsiy tajribalarini tartibga soladi va chuqurlashtiradi, kuzatishlarini o`tkirlashti-radi, insonning tabiatini bilishga o`rgatadi*”<sup>5</sup>, - tarzidagi to`xtamida ayni shu holat seziladi. Insonning tabiatini bilish esa, faqat o`quv tahlili mobaynida amalga oshiriladi. SHuning uchun ham ushbu didaktik tadbir o`qitish amaliyotidagi eng muhim ish sanaladi.

O`quv tahlilini amalga oshira bilish, o`rganilayotgan asarning mohiyatini aniqlay olish o`quvchilarga muayyan asar haqida bilim beribgina qolmaydi. Hatto, aytish mumkinki, bu kechim bolalarda muayyan bilim hosil qilishdan ko`ra, ularda muayyan ma`naviy sifatlar shakllantirishga ko`proq xizmat qiladi. YA`ni o`quvchi qaysi bir yozuvchining qaysi bir asarida nima bo`lganligini bilib qo`ymaydi, balki didaktik tahlil yordamida o`quvchilar yo`mualifni, yo`asardagi timsollarni, ko`p hollarda esa, har ikkisini ham tuyadilar. Har bir personajning nima uchun aynan shunday xatti-harakat qilganligi sabablarini aniqlash va bunga ishonch hosil qilish o`quvchilarining ma`naviy o`sishlarida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Taniqli adabiyot metodisti S. Dolimov: “*Ishonch bilimdan farq qiladi. Ishonch uzoq vaqt kuzatishlar, shaxsiy tajribalar, shaxsiy kechinmalar orqali yaratiladi. Bola maktabga kirgan vaqtida unda chuqur axloqiy e'tiqod, shakllangan dunyoqarash, voyaga etgan estetik zavq bo`lmaydi*”<sup>6</sup>, - deb yozganida, adabiyotning tengsiz ma`naviy o`rnini nazarda tutgan edi. Olimning bu qarashi tahlilsiz bilim ishonchga aylanmasligini anglatishi jihatidan g`oyat ahamiyatlidir.

Subutoy Dolimov adabiyotga ijtimoiy yondashuv keng yoyilgan, har qanday asarga unda aks etgan mavzuga qarab baho berish avj olgan, adabiy hodisalarga boshdan oyoq sinfiy-partiyaviy nazar bilan qarash hukmronlik qilgan davrlarda ham badiiy asar o`quvchiga zavq berishi, uning tuyg`ularini tarbiyalashi kerakligini aytadi. SHuning uchun ham olim badiiy matndan faqat ijtimoiy ma`no qidirib, uning estetik zavq manbai ekanini hisobga olmaydigan o`qituvchilarining tutumidan qoniqmay, shunday degan edi: “*Ba`zi*

<sup>5</sup> Долимов ва бк. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1967. 53-бет.

<sup>6</sup> Долимов ва бк. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1967. 55-бет.

*...o`qituvchilar asarni vulgar sosiologizm asosida analiz qiladilar va natijada adabiyotning o`ziga xos xususiyatiga e'tibor etmaydilar, adabiyotning estetik zavqni tarbiyalashdagi muhim xizmatini yo`qqa chiqaradilar*<sup>7</sup>. Domla adabiyot o`qituvchisi asardan, birinchi navbatda, badiiy go`zallik va estetik ma`no qidirishini astoydil istar edi.

Badiiy asarni o`rganishning uchinchi yo`li **muammoli** tahlildir. Bu metod, ko`pincha yuqori sinflarda qo`llaniladi. Undagi asosiy narsa o`quvchilar oldiga kerakli va qiziqarli muammo qo`yish orqali badiiy asarni tekshirishdir. O`quvchilar oldilariga qo`yilgan muammoni echish jarayonida asar matniga tayanadi va shu asnoda uning ichiga kirib, jozibasini anglaydi, mohiyatiga etadi va asarga estetik baho beradi. Adabiy asarni muammoli o`rganishda o`quvchilar oldiga hayotiy va estetik jihatdan muhim masala qo`yiladi va unga har bir o`quvchi o`zicha javob beradi. Bu javoblar qancha xilma-xil bo`lsa, o`shancha quvonmoq kerak. CHunki qolipda fikrlash, bir xil xulosaga kelish fiksizlik va adabiy ta`limni samarasizlikka olib boradigan yo`ldir.

Muammoli ta`lim hozirda keng yoyilib borayotgan interfaol usullarning asosiy shartlaridan biridir. Bunda o`quvchilar oldiga echilishi zarur o`quv muammosi qo`yilishi va bu muammoni hal etishda zarur bo`ladigan badiiy, didaktik ashyolar etkazib berilishi, o`quvchilar esa mustaqil yo`sinda izlanish olib borib, masalani o`zlaricha hal etishlari ko`zda tutiladi. Bunda o`quv muammosining, albatta, bir necha echimli bo`lishi yodda tutilishi lozim. Bir necha echimga ega bo`lmagan, turfa fikrlash imkonini bermaydigan masalalar o`quv muammosi sifatida qo`yilmasligi kerak.

Interfaol ta`lim, binobarin, muammoli tahlil uchun ham adabiy muammoning to`g`ri echilishidan ham ko`ra to`g`ri echimni topish yo`lida olib borilgan ishlar muhimroq ekani yodda tutilishi joiz. Bunday usulda o`qituvchi echimni topish yuzasidan bildirilgan fikrlarning sifatidan ko`ra soniga ko`proq e'tibor qaratishi, baholashda ham ayni shu jihatni alohida hisobga olishi zarur. YA`ni o`quvchilar ko`proq fikr aytish, g`oya tashlashga yo`naltirilishlari kerak.

6-sinfda “Zarbulmasal” asari o`rganiladi. Gulxaniyning bu bitigini muammoli yo`sinda tahlil etish imkonи bor. Asar matni bilan tanishilgandan keyin o`quvchilarning oldiga: “Gulxaniy o`z asarida nima sababdan qushlar timsolidan foydalandi?” tarzida masala qo`yish lozim. YOki 8-sinfda “Saodat sohili” qissasi o`rganiladi. Bolalar asar bilan ma`lum darajada tanishganlaridan keyin ulardan: “Qissada shoh Bobur bilan shoир Boburga xos jihatlar qanday tasvirlangan?” degan muammoni hal etish talab qilinishi mumkin. O`quvchilar oldida muammoli vaziyat yaratilgach, ular asosan asar matni va darslikdagи savol-topshiriq va metodik maqola hamda o`zlari izlab topgan qo`shimcha materiallar asosida bu vaziyatni hal qilishga urinadilar. O`qituvchi bu jarayonda o`quvchilarning asosiy manba bo`lmish asar matnidan chalg`ib ketmay, uni turlicha talqin etib, to`xtamga kelishlarini ta`minlashi zarur.

<sup>7</sup> Долимов ва бк. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1967. 59-бет.

O`smirlar qiziquvchan, o`z fikrlariga ega va bu fikrlar bilan boshqalarning ham hisoblashishlarini juda-juda istaydigan bo`lishadi. Ular psixologiyasidagi ayni shu holat adabiy asarni muammoli o`rganishda qo`l keladi.

Badiiy asarni o`rganishning bu uchala usuli ham sof holatda kamdan kam qo`llanilib, ko`pincha aralash ishlataladi.

Nazorat savollari:

- 1.O`quv narorat turlari nechaga bo`linadi?
- 2.Interfaol usullar nima ?
- 3.Adabiy turlar va janrlarning asarda ahamiyati qanday?

**Adabiyotlar:**

1. Dolimov S., Ubaydullaev H., Ahmedov Q., Adabiyot o`qitish metodikasi, -T.: «O`qituvchi», 1967.
2. Rezъ Z. YA. i dr., Metodika prepodavaniya literatury, -Moskva: «Prosvetlenie», 1977. str.10-17.
3. Zunnunov A., Hotamov N., Ibrohimov A., Esonov J. Adabiyot o`qitish metodikasi. -T.: O`qituvchi, 1992.
4. Yo`ldoshev Q., Madaev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o`qitish metodikasi. -T.: «Universitet», 1994.
5. Yo`ldoshev Q. Adabiyot o`qitishning ilmiy-nazariy asoslari. -T.: «O`qituvchi», 1996.

## **2-MAVZU: Ta’lim jarayonida ilg`or informatsion-texnologiyalarni qo’llash metodikasi (2 soat)**

**Reja:**

### **1. Ekstrafaol usul.**

### **2. Interfaol usul**

### **3. Introfaol usul**

Ushbu mavzuni teranroq anglash sarlavhaga alohida diqqat qaratishdan boshlansa samarali bo`ladi. Sarlavha oldingi mashg`ulotlardagi mavzularda o`qitish so`ziga urg`u va ustuvorlik berilgan bo`lsa, hozir esa o`qish bilan o`qitishga teng munosabat aks etadi. So`z shunchaki ishlatilmaydi, uning mazmuniga e’tibor bermoq kerak.

Har qanday o`qitish jarayoni hamisha ta’limni boshqarish yo`sini va o`quvchilarning o`qitish tizimi bilan axborot almashinish yo`nalishidan yuzaga keladi. Axborot almashinish (pedagogikada bilim berish va olish) yo`sini, shartli ravishda axborotlar oqimi tarzida tasavvur qilinsa, uning qayoqdan qayoqqa qarab yo`naltirilganligi ta’limning tabiatini belgilaydi, deb aytish mumkin. YA’ni o`zlashtirilishi lozim bo`lgan bilimlarning o`qituvchidan o`quvchiga yo`o`qituvchi bilan o`quvchilardan o`quvchilarga yoki o`quvchilarning o`zlaridan ularning o`zlariga qarab yo`naltirilishi ta’limni amalga oshirishning yo`l va usullarini belgilaydigan omillardir. Hozirgi pedagogika ilmi o`qitish kechimini o`quvchilarning axborot (bilim)larni o`zlashtirishdagi ishtirokiga ko`ra uch turga bo`ladi.

## **EKSTRAFAOL USUL**

**Ekstrafaol usul** – (extra – tashqi) axborotlar oqimi ta’lim oluvchilardan tashqarida bo`lib, ularga yo`naltiriladi. O`quvchi tom ma’noda “o`quvchi” maqomida bo`ladi va tashqaridan yuborilayotgan axborotlarni qabul etish bilangina shug`ullanadi. Bu usul an’anaviy yo`sindagi o`qitish tarzi uchun xarakterlidir. Bu usul passiv yoki nofaol deb ham nomlanadi. Negaki, unda o`quvchi emas, balki o`qitish tizimi faollilik ko`rsatadi.

## **INTERFAOL USUL**

**Interfaol usul** – (inter - aro, o`zaro, birgalikda, act – harakat, faoliyat, tadbir) bunda axborotlar oqimini vujudga keltirish ham, yo`naltirish ham va o`zlashtirish ham barcha qatnashchilarning birgalikdagi faoliyati natijasida yuzaga keladi. Bu usulda o`quvchi o`quvchi bilan, bir o`quvchilar guruhi boshqa guruh bilan, bularning har biri alohida yoki birgalikda o`qituvchi bilan o`zaro munosabatda bo`ladi. Mana shu munosabatlar kechimida axborotlar o`zlashtiriladi.

## INTROFAOL USUL

**Introfaol usul** – (intro – ichki) axborotlar oqimi o’zlashtirish faqat o’quvchilar ichida sodir bo’ladi va tashqariga yo’naltiriladi. Bunda o’quvchilar o’qitishning sub’ekti sifatida namoyon bo’ladilar. Bu usul o’quvchilarning mustaqil o’quv faoliyatlariga xosdir.

Necha asrlardan buyon foydalani kelinayotgan an’anaviy usulda ta’lim berish va o’qish bugunga kelib, axborot texnikalari davri talabiga to’liq javob berolmay qolayotganligi ko’rinib turibdi. Agar oldinlari o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishi lozim bo’lgan bilimlarning yagona manbasi deb o’qituvchi sanalgan bo’lsa, bugunga kelib u bilimlarni o’zlashtirish, olamni bilishning birdan bir vositachisi emasligi ma’lum bo’ldi. Bilimning miqiyosi kengayib, axborotlar oqimi shu qadar ko’paydiki, bir kishi uning arzimas bir bo’lagini ham o’zlashtirib ololmaydigan bo’lib qoldi.

Jamiyat a’zolarining saviyasi yuksalishi tufayli oilaning imkoniyatlari ham ortib, o’z bolalariga yaxshigina bilim bera oladigan darajaga etdi. SHuningdek, axborot vositalarining ko’payganligi, axborotlarni eslab qolish va qo’llashning g’oyat qulay texnik vositalari yuksak darajada rivojlanganligi natijasida o’qituvchi ma’rifat osmonidagi yolg’iz va yorug` yulduz sanalmaydigan bo’lib qoldi. Endilikda bilimlarni o’zlashtirish, ko’nikma va malakalar hosil etishning o’zgacharoq yo’llarini topish zaruriyati paydo bo’ldi.

Endi, oldinlari bo’lganidek, miyaning chap yarim shari, ya’ni xotirani kuchaytirishgagina intilish ta’lim kechimi uchun etarli bo’lmay qoldi. Inson xotirasining o’rnini bosadigan texnik vositalar yaratildi va odam, istagan vaqtida, o’zini qiynab o’tirmay, juda ko’p narsalarni esiga tushirishi mumkin bo’lib qoldi. Endi hamma gap vujudga keltirilgan shuncha texnik imkoniyatlardan samarali foydalana oladigan, fan rivojidagi o’zgarishlarga moslasha biladigan, tinimsiz izlanishga ichki ehtiyoj sezganidan taraqqiyotni yanada olg’a siljitadigan shaxslarni shakllantirishda bo’lib qoldi.

Bu hol maorif va ta’lim tizimini ham tubdan o’zgartirish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Endilikda o’quvchilardan o’qituvchisining aytganlarini eslab qolishnigina talab qilish etarli bo’lmay qoldi. SHuning uchun bolalarni mustaqil izlanadigan, original qarorlar qabul qiladigan, nostandard vaziyatlarda eng maqbul echimni topoladigan yo’sinda tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etdi. Keyingi vaqlarda g’oyat keng yoyilib borayotgan **interfaol ta’lim metodlari** ayni shu jihatlari bilan e’tiborga loyiqidir. Unda ta’lim jarayonining asosiy og’irligi o’quvchining zimmasiga ortiladi. Bu metodlarning mohiyatini o’qituvchi bilan o’quvchilarninggina emas, balki o’quvchilar bilan o’quvchilarning ham bирgalikdagi faoliyati tashkil etadi.

Interfaol atamasi “**inter akt**” so’z birikmasidan olingan bo’lib, lotincha “**inter**” – aro, o’zaro, bирgalikda va “**akt**” – xatti-harakat, faoliyat, tadbir ma’nolarini anglatadi. YA’ni interfaol metodlar ta’lim mazmunining to’liq o’zlashtirilishida o’quvchilarning o’zaro bir-birlari va o’qituvchilari bilan

birgalikda faoliyat ko`rsatishlarini tashkil etish maqsadida yuzaga keladi. Bu metodlar o`quvchilarning faolligini, o`zlashtiriladigan ma'lumotlarga ijodiy yondashishini ko`zda tutadi.

Ta'lim jarayoni qatnashchilarining bemalol *bahslashish imkoniga egaligi*, materialning *erkin yo'sinda o'zlashtirilishi*, ma'ruzalarining, imkon qadar, *kamroq*, seminarlarning *ko'proq bo'lishi*, o`quvchilarning *tashabbuskorligi oshishi*, o`quv topshiriqlarining *alohida o'quvchiga emas, balki guruhlarga berilishi* va buning natijasida bolalarda jamoa bo`lib, *birgalikda faoliyat ko`rsatish zarurati va ko`nikmasi yuzaga kelishi, yozma ishlardan keng foydalanish* kabilalar interfaol ta'lim metodlarining asosiy belgilaridir.

Ayrim mutaxassislar interfaol metodlarning qiziqarli ekani ularning asosiy belgisi deb o`ylashadi. Sirtdan qaraganda, to`g`riday ko`ringan bu to`xtam aslida yanglishdir. CHunki ta'lim jarayoni uchun qiziqarlilikning o`zi maqsad bo`lolmaydi. Qiziqarlilik – vosita, xolos. Interfaol usullar ham barcha ilg`or metodlar kabi mohiyatan kuch va resurlarni kamroq sarflab, o`quvchilar bilan kattaroq ta'limiy natijaga erishishga qaratiladi. Butun gap ta'lim metodlarining samarali, ayni vaqtning o`zida, o`quvchilarni zeriktirmaydigan va qiziqarli ham bo`lishini ta'minlashdadir. Demak, interfaol metodlar uchun qiziqarlilik birdan bir ham, asosiy ham belgi bo`lolmaydi.

Interfaol metodlar uchun *erishilgan didaktik natijadan ham ko`ra, unga kelish jarayoni, o`quvchilarning bu kechimdagи izlanishlari, ko`rsatgan tashabbuslari muhimroqdir*.

Interfaol metodlarning negizada transaksiya pedagogik falsafasining **konstruktivizm** yo`nalishi yotadi. Konstruktivizm XX asrning 60-yillardan e'tiboran pedagogika ilmida ham nazariy, ham amaliy yo`nalish sifatida keng yoyildi. Bunday yondashuvga ko`ra o`qish jarayoni bilim, ko`nikma, malakalar o`quvchilarning faoliyatları natijasida ularning o`zlari tomonidan konstruksiya qilinadi, ya`ni quriladi. Uzoq asrlik pedagogik tajriba ko`rsatganidek, hech qanday o`qituvchi birovni o`qitolmaydi. Har bir o`quvchining o`zi o`qishga intiladi va u erishadigan ta'limiy natija uning intilish darajasiga mutanosib bo`ladi.

Bolalarni intellektual rivojlantirishda konstruktivistik qarashlardan foydalanish amaliyotining yuzaga kelishiga shvesariyalik faylasuf va mashhur pedagog Jan Pieje (1896 yil 9 avgust-1980 yil 16 sentyabr), rus psixologi L. S. Vigotskiy (1896 yil 5 noyabr- 1934 yil 11 iyun), zamonaviy amerika pedagogikasining otasi Djon Dbyui (1859 yil 20 oktyabr-1952 yil 1 iyun), amerikalik psixolog Benjamin Blum (1913 yil 21 fevral) kabi allomalar jiddiy ta'sir ko`rsatgan.

Konstruktivistik yondashuv o`zagida **Jan Piajening**: “...*bola o`z intellektining me'moridir*”, - degan qarashi yotadi. Bu qarash o`qitish faol kechimdir, har bir kishi yangi bilimlarni o`z shaxsiy tajribasi asosida o`ziga xos yo`sini va miqdorda egallaydi. U yangi tushunchalarni oldin orttirilgan tajribalari ustiga “quradi” degan fikrga tayanadi.

Hech bir odam birovdan tayyor g`oyani shundayicha o`zgarishsiz ololmaydi, balki hamisha o`z yondashuviga ega bo`ladi. SHuning uchun ham dunyodagi odamlar ayni bir narsa haqida turlicha qarashga ega bo`ladilar.

Har bir odam umri davomida atrof olamni o`ziga xos yo`sinda “quradi” va o`zi qurbaniday anglaydi. Aynan shuning uchun ham har bir odam o`ziga xos dunyoqarash va e`tiqodga ega bo`lgani bilan betakror hamda qimmatlidir. SHU sababli ham kimningdir birovlarnikiga o`xshamaydigan qarashlari e`tiborni tortadi. SHU bois ham har bir odam uchun o`z qiyofasi, o`z uslubini saqlab qolish g`oyat muhimdir.

Inson egallashi kerak bo`ladigan yangi bilimlarga asos sanaluvchi **tajriba** odam tomonidan oldin o`zlashtirilgan bilim, ko`nikma va malakalar yig`indisidir. **Hayotiy tajriba** esa tashqi olam va jamiyat bilan faol amaliy o`zaro ta`sirni anglatadi. O`zi va o`zgalarning tajribalaridan foydalanish kishiga yangi sharoitga nisbatan tez va oson moslashish imkonini beradi. Aynan tajribaga suyanibgina bolalar ham, kattalar ham yangi bilimlarni yangi hayotiy vaziyatlarda amalda qo`llashlari mumkin bo`ladi. Har bir odamda mavjud bo`lgan tajriba uning **ta`sirlanish sur`ati, munosabat uslubi, faoliyat usuli, tafakkur yo`siniga** jiddiy ta`sir ko`rsatadi.

Konstruktivizm o`quvchiga bilim tayyor holda berilmaydi, degan o`zak qarashga tayanadigan pedagogik falsafadir. O`quvchiga hech kim bilim bermaydi, balki u bilimlarni egallash uchun o`zi harakat qilishi, intilishi lozim. Ta`lim muhiti esa, faqat o`quvchilarga bilimlarni mustaqil ravishda egallah va ko`paytirish uchun **sharoit yaratib berishi** kerak.

Konstruktivizm tarafdarlarining qarashlariga ko`ra, ta`limda qanchalik “xom” va yaroqsiz bo`lishiga qaramay, o`quvchining nuqtai nazari asos qilib olinishi kerak. J. Piaje bolada oldin shakllangan mavjud ichki bilimlar bilan tashqi noma'lumliklarga to`la reallik orasidagi ziddiyat bartaraf etilishi orqali yangi bilimlar “quriladi”, barpo etiladi. Oldingi tajriba asosida bilimning konstruksiya qilinishi, ya`ni qurilishi bu qarama-qarshilikni bartaraf etib, bilishning vaqtinchalik barqarorligi (yoki kognitiv muvozanat)ni ta`minlaydi.

Konstruktivizm **haqiqatga erishish kechimini haqiqatning o`zidan ko`ra qimmatroq deb biladigan** pedagogik falsafadir. “*Ilmiy bilim turg`un hodisa bo`lmay, tinimsiz qurish va qayta tashkil etishdan iborat kechimdir*”, - deydi Jan Piaje o`zining asarlaridan birida.

Konstruktiv qarashga tayanib yuzaga kelgan va shu asosda qo`llaniladigan interfaol metodlar o`qituvchining vazifa va maqomini bir qadar o`zgartiradi. Interfaol metodlardan foydalanayotgan o`qituvchi dars beruvchi-o`qituvchi emas, balki o`quvchining muammoga yo`naltirilgan tadqiqotchilik faoliyatini uyuştirishda maslahatchi, tashkilotchi va muvofiqlashtiruvchidir. U o`quvchining mustaqil aqliy faoliyat ko`rsatishiga sharoit yaratadi va bolaning fikrashi, muayyan haqiqatga kelishidagi tashabbuskorligini har tomonlama qo`llab-quvvatlaydi. O`quvchi esa ta`lim kechimini amalga oshirish va unda

mo`jal qilingan natijaga erishish uchun to`la javobgar bo`lgan teng huquqli sherikka aylanadi.

Interfaol metodlardan foydalanayotgan o`qituvchi o`quvchilarni o`rab turgan real borliqdagi muammolarni ilgari surishga, buning uchun topshiriq sifatida hayotda ko`p uchraydigan va manbalardan topish mumkin bo`lgan masalalarni berishga e'tibor qilishi kerak. Agar bu xildagi muammolar o`quvchilarning o`zлари tomonidan tavsiya etilsa, yanada yaxshi bo`ladi. Ayni vaqtida o`quvchilar hal qilishlari lozim bo`lgan muammo sun'iy va arzimas bo`lmasligi kerak.

Interfaol metodlarni qo`llayotgan o`qituvchi biror dars yuzasidan o`quvchilarga topshiriq berayotganda **tasniflang, asoslang, tadqiq eting, umumlashtiring, tahlil qiling, tashxis qo`ying, baho bering, andaza bering (modellashtiring)** kabi bolani to`g`ridan to`g`ri faoliyatga undovchi so`zлarni qo`llashi kerak. Ta`limning xususiy maqsadlarini bu xilda qo`yish o`sha muammo yuzasidan o`quvchilarni mustaqil izlanishga, faoliyat ko`rsatishga yo`naltiradi.

O`qitish jarayoni interfaol usullar asosida tashkil etilayotganda o`qituvchi qarama-qarshi nuqtai nazarlarni bir-biriga to`qnashtirish orqali o`quvchilarda tanqidiy tafakkur shakllanishiga sharoit yaratishni ko`zda tutishi kerak. SHunda o`quvchilar o`z qarashlarini himoya qilish uchun tezda o`zganining fikriga qarshi dalillar keltirish, birovning xulosasidagi ojiz o`rirlarni darhol topa bilish kabi sifatlarni o`zlashtirishadi.

Interfaol metodlar o`qituvchidan o`rinli berilgan aqli savollarni yuksak darajada qadrlashni, bitta aqli savol o`nlab to`g`ri, ammo jo`n javoblardan ustun turishini ko`zda tutishini talab qiladi. Shunda o`quvchilarda kerakli va chuqur savollar berishga ichki ehtiyoj paydo bo`ladi. Bularidan tashqari, interfaol metodlardan foydalanayotgan o`qituvchi o`quvchilar oldiga muammo qo`yanidan keyin vaqtida “jimlik saqlash”ni ham bilishi va bu bilan o`quvchilarga savollar ustida chuqurroq o`ylab olish imkonini bera bilishi lozim.

O`quvchilarning bir-birlari bilan birgalikda ish ko`rishiga tayanib ta`lim bermoqchi bo`lgan o`qituvchi bolalar tabiatidagi o`ta qiziquvchanlikdan o`rinli foydalanib, ta`lim kechimida evristik va tadqiqot usullarini qo`llashi maqsadga muvofiqdir. Xullas, interfaol usullarda dars o`tilganda ko`pincha **“izlanish – faraz – echim – ilova – yangi izlanish”** tarzidagi ta`limiy sikl yuzaga kelishi kerakki, shundagina o`quvchilarning shaxs sifatida taraqqiy etishi ta`minlangan bo`ladi. YA`ni, o`quvchilar izlanish natijasida faraz qiladilar, faraz muayyan echimga olib keladi, o`quvchilar tomonidan tavsiya etilgan echimga o`qituvchi bir qator ilovalar qiladi, so`ng bu hol keyingi izlanishlarga sabab bo`ladi. Eng muhimmi, bu kechimda o`quvchilar hamisha mustaqil ish olib borishadi. U to`xtovsiz izlanishlar zarurligi sezilib turadigan muhit quchog`ida bo`ladi.

Interfaol metodlar orasida eng ko`p qo`llaniladigan va katta samara berishi mumkin bo`lgan usul **“fikriy hujum”**dir. “Fikriy hujum” biror sinf yoki o`quvchilar jamoasi oldiga qo`yilgan muammoni echishning eng samarali va

demokratik yo`lidir. SHuni alohida ta`kilash o`rinligi, hozir “Fikriy hujum” usulidan foydalanish amaliyotida o`qituvchilar o`tgan mavzular yuzasidan o`quvchilarga turli-tuman savollar bilan “hujum” qilishlari keng tarqalgan. Holbuki, tamomila buning teskarisi bo`lishi kerak.

“Fikriy hujum”ning butun mohiyati o`quvchilarning o`zlari yangi mavzuni o`zlashtirish yoki qo`yilgan biror didaktik muammoni hal etish uchun fikrlarini zo`riqtirib, tinimsiz “hujum” qilishlari va shu tariqa ko`rsatilgan qiziqarli qizg`in faoliyat natijasida o`quv topshirig`ini bajarishlari kerak. Bu usulning diqqatga loyiq jihat shundaki, unda o`quvchilar o`zaro birgalikda ishlashga, yaxshi yoki yomon o`qishidan qat`i nazar har bitta qatnashchining fikrini eshitishga o`rganishadi. SHuningdek, guruh a`zolarining bir xil baholanishi bolalarda jamoatchilik ruhini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Fikriy hujum”da o`qituvchi boshqaruvchi emas, balki **fisilator** (yordam beruvchi) sifatida ish ko`radi. U o`quvchilar faoliyatini tashkil qiladi, yo`naltirib turadi, ularning asosiy maqsaddan chalg`ib ketmasliklarini ta`minlaydi. “Fikriy hujum” metodini qo`llash quyidagi taxminiy bosqichlardan iborat bo`lishi mumkin:

1. **Tayyorgarlik.** “Fikriy hujum” usulida o`tiladigan dars boshlanganga qadar u darsda hal qilinishi kerak bo`lgan muammo yoki bajarilishi lozim topshiriqdan o`quvchilar xabardor qilinislari lozim. Toki, bolalar bu muammo yoxud vazifa to`g`risida muayyan vaqt davomida bosh qotirishlari, o`ylab ko`rishlari mumkin bo`lsin. SHuningdek, sinfdagi o`quvchilar muayyan kichik guruhlarga bo`linishlari va ularning har biri aniq vazifa bilan ta`minlanishlari zarur. CHunonchi, kim guruhga etakchi bo`lishi, kimlar aytilgan turli-tuman fikrlarni yozib olish uchun kotiblik qilishi belgilab qo`yilishi zarur. SHuningdek, o`qituvchi a`lochi va xolis o`quvchilardan qaysi guruhning javobi eng to`g`ri ekanini belgilab beradigan hakamlar hay`atini tashkil etishi kerak.

2. **Dalillar topish.** Darsda o`quvchilar hal etishlari kerak bo`lgan muammo aniq va tushunarli bo`lishi zarur. Berilayotgan topshiriqni darstaxtaga yozib qo`yish, bir necha kun oldin uni o`quvchilar bilan muhokama qilish kerak. Muammo yuzasidan o`quvchilarning dastlabki yaxshi-yomon fikrlari eshitib ko`rilsa, ular muvozanatdan chiqib, bezovta bo`lib qolishadi.

3. **Dastlabki mashq.** “Fikriy hujum” yordamida hal qilinishi zarur bo`lgan muammoni echishga o`quvchilarni ruhan va aqlan tayyorlash uchun dastlabki mashq o`tkazish foydalidir. Bu mashq qo`yilayotgan muammoga bevosita tegishli bo`lmasligi ham mumkin. Dastlabki mashq “Fikriy hujum” usuli qanday bo`lishini o`quvchilar tasavvur etishlari uchun ham g`oyat zarurdir.

4. **Fikrlarni olish.** Interfaol usuldagagi eng asosiy va qiziqarli bo`lgan bu bosqich tavsiya etilgan muammo yuzasidan fikriy hujum bilan boshlanadi. Istagan o`quvchi, istagan vaqtida, istagan fikrini aytishi mumkin. Faqat fikrlarning kotiblar tomonidan yozib olinishiga ulgurish zarur bo`ladi. O`quvchilar har qanday to`g`ri-noto`g`ri, yaxshi-yomon fikrlarni bildirishdan

cho`chimasliklari uchun quyidagi qoidalar darstaxtaga yozib qo`yilishi va unga hammaning amal qilishi ta'minlanishi kerak:

- TANQID QILMASLIK VA BAHOLAMASLIK (aytilayotgan fikrlar qandayligidan qat'i nazar hech kim hech kimni biror yo'sinda tanqid qilmasligi, dakki bermasligi, munosabat bildirmasligi kerak);

- NOTO'G`RI FIKR BO`LMAYDI (esga kelgan har qanday fikr o`ylab o'tirmay, aytilishi kerak. Bo`lmaq`ur, "ahmoqona", to`g`ri kelmaydiganday ko`rinadigan fikrlar ba'zan foydali g`oyalarning yuzaga kelishiga sabab bo`lishi ham mumkin);

- FIKRLARNING MIQDORI MUHIM (fikrlar qancha ko`p bo`lsa, shuncha yaxshi, chunki ortiqcha g`oyalarni qisqartirish, etarlicha bo`lmay qolgan fikrlarni ko`paytirishdan osonroq);

- FIKRLARNI ALMASHTIRISH, QO`SHISH, YAXSHILASH LOZIM (hammaning fikri olinib, ular maqsadga muvofiq tarzda o`rinlashtirilishi, saralanishi, tahrir qilinishi, tahlil etilishi kerak);

- BEMALOL BO`LISH, O`YNAB ZAVQ OLISH KERAK ("fikriy hujum" jarayoni o`yin va zavqlanish ruhida o'tishi kerak. U qiziqarli bo`lsa, ko`proq samara keltiradi. "Fikriy hujum" o`yin ruhida, qiziqarli o'tkazilsa, guruh ichida do`stona vaziyat yuzaga kelib, o`quvchilar bir-birlariga o`zaro yordam ko`rsatishadi);

- JIM TURISH HAM FOYDALI (ayrim o`quvchilarning o`ylanib jim qolishlariga xayrixohlik bilan qarash kerak, jim o`ylanib qolgan odam noyob bir fikrni aytib yuborishi ham mumkin).

5. **Echimni topish.** O`quvchilar "fikriy hujum"ga kirishganlardan keyin belgilangan vaqt tugab borayotganda yoki echimga olib boradigan fikrlar aytib qo`yilganda, o`qituvchi fikriy hujumni to`xtatib, oxirgi bosqichga o'tish, ya'ni muammoni echish kerakligini esga soladi. Bu vaqtida guruhlardagi kotiblar barcha fikrlarni yozib olishgan, har bir o`quvchi bu fikrlarning qaysilari yaroqli ekani to`g`risida o`ylay boshlagan bo`lishadi. O`quvchilar bir-birlari bilan maslahatlashib, aytilgan fikrlarning har birini bir qadar muhokama etgan holda yaroqsiz fikrlarni o`chirib, fikrlar ro`yxatini tobora qisqartirib boradi. Nihoyat, bir necha juda muhim qarashlargina qoladi. O`quvchilarning kichik guruhi ana shularga tayanib, ta'limiy masalaning echilishi bo`yicha o`z xulosasini beradi.

6. **Tatbiq.** Agar "Fikriy hujum" natijasida kelingan xulosa amaliyatga tatbiq etiladigan yo'sinda bo`lsa, uni qaysi sohaga qay tarzda qo'llash mumkinligi haqida o`qituvchi to`xtab o`tgani ma'qul.

Umuman, mashg`ulot so`ngida "Fikriy hujum" jarayoni qanday o`tgani va qaysi guruhg'a nima sababdan qanday baho qo`yilishi xususida o`qituvchi bir necha og`iz so`z aytgani ma'qul. Alovida ta'kidlash kerakki, baho alovida o`quvchilarga emas, balki kichik guruhlarga qo`yiladi. SHunday qilinsa, guruh a'zolari bir-birlarini o`qitishadi, didaktik materialning hamma tomonidan o`zlashtirilishiga intilishadi.

Adabiyot o`qituvchisi “Fikriy hujum” asnosida muammoning echimi sifatida taqdim etilayotgan fikr o`rganilishi lozim bo`lgan badiiy asar matnidan keltirib chiqarilgan bo`lishiga alohida e`tibor berishi kerak.

Nazorat savollari:

- 1.Ekstrafaol usuli qanday ped texnologiyasi hisoblanadi?
- 2.Interfaol usul iga munosabatingiz?
- 3.Introfaol usul nima va uning ahamiyati?

### **Adabiyotlar:**

Bogdanova O. Yu., Leonov S. A., Chertov V. F. Metodika prepodavaniya literatury. -Moskva: "Academa", 2004.

Guzeev V. V. Obrazovatel`naya texnologiya: ot priema do filosofii. -Moskva: «Sentyabrь», 1996. 112 s.

Dolimov S., Ubaydullaev H., Ahmedov Q., Adabiyot o`qitish metodikasi, -T.: “O`qituvchi”, 1967.

Rezъ Z. Ya. i dr., Metodika prepodavaniya literatury. -Moskva: «Prosvetlenie», 1977.

Yo`ldoshev Q., Madaev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o`qitish metodikasi. -T.: «Universitet», 1994.

Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. –T.: “Tamaddun”, 2010.

Safin D., Musina R. Interaktivnye metodi prepodavaniya i ucheniya. –T.: 2007.

### **3-mavzu: Oliy ta’limda ma’ruza o`qish metodikasi va ma’ruzalarning turlari (2 soat)**

#### **REJA:**

1. Ma’ruza darslarda kitob bilan ishlash.
2. Mashg`ulotlarda izohli lug`atlardan foydalanish.

### **MA’RUZA DARSLARDA KITOB BILAN ISHLASH.**

**Ta’lim metodlari va ularning turlari.** O‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad bu davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim va ko‘nikmalarini o‘quvchiga yetkazishdan iborat. qachonki o‘quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o‘quvchi malaka oshirish uchun mo‘ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o‘qitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo‘ladi.

Ma’lumki, ta’lim olish (ma’lumot olish) jarayoni – bu ma’naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta’lim oluvchining o‘zi orqali yoki boshqa birov- ta’lim beruvchining ko‘magida amalga oshirilishi mumkin. Ta’lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga(usullarga) tayangan holda kechadi.

Metod – grekcha Metodos so‘zidan olingan bo‘lib, izlanish yoki bilish yo‘li, nazariya, ta’limot ma’nosini anglatadi.

**Ta’lim metodini(usulini)** - ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchining ma’lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga va tartibga solingan yo‘l-yo‘rig‘i sifatida ta’riflash mumkin.

**Ta’lim modelini**, esa bir yoki bir nechta ta’lim metodlari yordamida amalga oshiriladigan ta’lim jarayoni amalga oshirish tuzilmasi, deb qarashimiz mumkin.

**Ta’lim metodi - bu ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchining ma’lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga solingan yo‘l-yo‘rig‘i.**

Ta’lim metodlarini ta’lim maqsadlariga erishish bo‘yicha o‘quvchi va o‘qituvchining birgalikdagi ish faoliyatini tashkil qilishning belgilari bo‘yicha quyidagicha guruhlarga bo‘lish mumkin:

- **O‘qituvchi markazda bo‘lgan uslublar;**
- **O‘quvchi markazda bo‘lgan (interfaol yoki interaktiv) uslublar.**

Odatda ushbu uslublardan biri yoki bir nechta ayrim o‘qitish modellarida birvarakayiga foydalaniladi. Odatda dars jarayoni ikki yoki undan ortiq asosiy uslublardan tashkil topadi va bu uslublar dars mavzusiga to‘la muvofiq bo‘lib, o‘quvchilarning bilim va tajribasi qay bosqichda ekanligiga qarab qo‘llaniladi.

**O‘qituvchi markazda bo‘lgan uslub.** Bu uslub orqali o‘qituvchi o‘zi egallagan ma’lumot va ko‘nikmalarni o‘quvchilarning sezgi organlari orqali uzatish yo‘llarini qidiradi. Bunda o‘quvchilarning ishtiroki passiv bo‘ladi, ya’ni ular tinglaydilar, kuzatadilar va ma’ruzalarni yozib boradilar.

Bu uslublar asosan o‘qituvchining qo‘yidagi faoliyat turlari orqali amalga oshiriladi:

### **Og‘zaki o‘qitish usuli (ma’ruza, hikoya)**

Insonlar o‘rtasidagi eng sodda muloqot yo‘llaridan biri – og‘zaki nutq – og‘zaki ta’rif yoki asosiy mazmunning ogzaki ifodasi hisoblanadi. Bu uslub butunlay «so‘zlash» orqali amalaga oshiriladigan o‘qitishning eng rasmiy uslubi hisoblanadi. U 40 daqiqa yoki undan uzoqroq davom etadi va odatda o‘quvchining ishtiroki uchun hech qanday imkoniyat qoldirmaydi.Bunda asosan o‘quvchining eshitish qobiliyati ishga solinadi.

### **Tasviriy ifodalarni qo‘llash usuli (illustratsiya)**

Bu faoliyat orqali yetkazilishi kerak bo‘lgan bilim yoki malakalarni tasvirlovchi rasmlar orqali o‘quvchilarning ko‘rish qobiliyati ishga solinadi. O‘quvchilarga yetkazilmokchi bo‘lgan ma’lumotlar tasvirlab berish orqali, turli simvollar yordamida yetkaziladi. Bunday tasviriy ifodalar quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi: doska, maxsus oq doska, flipchart, video tasvir, videoproyektor, kodoskop, kompyuter grafiklar, magnit taxta, rasmlar, suratlar, bo‘yoqli rasmlar, grafik va jadvallar, diagrammalar, namunaviy va maxsus shaffof qog‘ozga tushirilgan tasvirlar.

### **Namoyish etish usuli (demonstratsiya)**

O‘qituvchi ma’lum bir asbob yoki jihozdan foydalanish vazifasini yoki topshiriqqa aloqador harakatlarni namuna sifatida namoyish etib berishi mumkin. Yakka holda namoyish etish o‘quvchini ko‘rish qobiliyatidan foydalanishga undaydi.

**O‘quvchi markazda bo‘lgan (interfaol yoki interaktiv) uslublar.** Bu uslublar qo‘llanilganda o‘qituvchi o‘quvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. O‘quvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- o‘quvchini yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari ortirilgan bilimni ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini o‘quvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- o‘quvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi;
- o‘qishni sog‘lom muhitda saqlab qolinishi;
- o‘qituvching yengillik yaratib beruvchi shaxsga aylanishi.

O‘quvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Shu sababdan, o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli darajada o‘quvchilar ishtiroki va amaliyoti mavjud bo‘ladi.

Bu uslublar asosan o‘qituvchining turli faoliyat shakllari orqali amalga oshiriladi. quyida ularning ba’zilari ustida qisman to‘xtalamiz.

## **MASHG‘ULOTLARDA IZOHЛИ LUG‘ATLARDAN FOYDALANISH**

### **Savol berish orqali o‘qitish usuli**

O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga savollarni ko‘ndalang qilib qo‘yadi va bu bilan ularni berilgan ma’lumotni yana takrorlashga undaydi. Shu tariqa ularni o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan og‘zaki va boshqa aloqa uslublarini tushunib yetganliklari aniqlanadi.

### **Muhokama usuli**

O‘quvchilarga suhbatlashish, masalalarga oydinlik kiritish, savollar berish, shuningdek ma’lumotni o‘zaro va o‘qituvchi bilan muhokama yo‘li bilan tahlil qilish taklifi kiritiladi.

### **Suhbat usuli**

Mavzuga aloqador manbaviy ma’lumotlar beriladigan bir sharoitda va darsning bir qismi sifatida ana shu mavzu haqida tushuntirish berish muhim hisoblanadi. Odatda ma’ruza vaqt 30 daqiqadan uzoq bo‘lmasligi kerak va asosiy vaqt ma’ruza ta’riqasida va mashg‘ulot so‘ngida o‘qituvchiga savollar berish uchun bir oz vaqt ajratiladi.

### **Guruhlardagi muhokama usuli**

Ushbu o‘qitish uslubi o‘qituvchining juda oz «so‘zlashiga» imkoniyat yaratadi va vaqtning asosiy qismi o‘quvchilarning o‘zaro muhokamalariga bag‘ishlanadi. qachonki o‘quvchilar mavzu haqida qandaydir darajada bilimga ega bo‘lsalar bu uslubdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xatto mavzu haqida tasavvurga ega bo‘lmagan holda, yoki mashg‘ulotlar avvalida o‘rganilgan bilimni takrorlash uchun ham foydalanishlari mumkin.

### **Yangilik kashf etish orqali o‘rganish usuli**

Bu yondoshuv o‘quvchilarning egallagan nazariy bilimlarini tadbiq etish bilan bir qatorda ularning o‘z-o‘zlarini rag‘batlantirish orqali bilim va ko‘nikmalar to‘plashlariga sharoit yaratadi.

Asosiy tamoyillari quyidagicha:

1. O‘rganishdan maqsadni avvaldan aniqlab olish talab qilinadi.
2. O‘rganish jarayoni ma’lum bir topshiriqqa yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.
3. Topshiriq quyidagilarni ta’minlaydi:
  - Tayanch ma’lumot olish uchun asos
  - O‘quvchi uchun notanish bo‘lgan ma’lumotga chuqur kirib borishiga undaydigan so‘rovga e’tibor berish
  - Oldindan aniqlangan va sog‘lom tarzdagi o‘rganishga asoslangan natijalar.
4. Muvaffaqiyat – faoliyat-yutuq motivatsiyasiga asoslangan.
5. Guruhdagi hamkorlik:
  - fikr va faoliyatni rag‘batlantiradi
  - mushohadaga chorlaydi
  - guruh ichida ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta’minlaydi.
6. Shaxs yoki guruhning ehtiyojidan kelib chiqqan holda o‘qituvchining qo‘shajak hissasiga ajratilgan vaqt chegaralangan.
7. O‘qituvchi asosan o‘qish jarayonini yengillashtiruvchi va ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta’minlovchi shaxs vazifasini o‘taydi. Kamdan-kam hollarda o‘qituvchi ma’lumot bilan ta’minlaydi.

### **Amaliy mashg‘ulot**

O‘qituvchi bir guruh o‘quvchilarning ko‘nikmalarini to‘liq yoki qisman shakllantiruvchi amaliy faoliyat orqali o‘qitishni xohlasa bu usuldan foydalanishi mumkin. Odatda bu jarayon o‘z ichiga so‘zlash, tasviriy ifoda va o‘qituvchi tomonidan namoyish etish va muhokamalarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Shu bilan birga, bu jarayon materiallar va maxsus jihozlardan foydalanish imkonи bo‘lgan ustaxonalarda amalga oshiriladi.

Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, o‘quvchilar nafaqat rasmiy o‘qitish orqali o‘rganadilar, ya’ni kitoblar, gazeta va jurnallar, televiedeniye, internet va sinfdosh do’stlar orqali, balki ko‘proq bevosita aloqa orqali

o‘rganadilar. Bu vositalar o‘kituvchi o‘tgan darsni mustahkamlashda foydalanishi mumkin.

Dars jarayonlarida yuqori samaradorlikka erishish uchun quyidagi metod va usullardan ham foydalanish mumkin:

### **Bahs-munozara usuli**

O‘quv guruhini ikki guruhga bo‘lgan holda, biror mavzu bo‘yicha o‘zaro baxs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladi.

### **Tadqiqot usuli**

O‘zlashtirish darajasining eng yuqori cho‘qisi; o‘quvchilarning olgan bilimlari asosida hali o‘rganilmagan kichik bir muammo ustida yakka yoki birgalashib izlanish olib borishi; keltirilgan taxminni izlab topilgan dalillar asosida to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tekshirish; Bosqichlari: darsda hammaga qiziqish uyg‘otadigan muammoni yoki masalani qo‘yish, uni o‘rganish, tadqiq qilish uchun ma’lumotlar to‘plash, muammoning yechimiga oid taxminlar, bashoratlar qilish va ularning qanchalik to‘g‘riligini to‘plangan ma’lumotlar asosida tahlil qilish va xulosa chiqarish; Ta’lim oluvchilar ayrim tadqiqot ishlarni ilmiy asoslangan holda mustaqil bajarishadi, ularni yozadilar va qo‘yilgan maqsad va natijalarini tahlil qiladilar.

### **Rolli o‘yinlar**

Ishbilarmonlik yoki rolly(vaziyatli) o‘yinlar – muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o‘rinda, matnli material o‘rniga o‘quvchilar tomonidan rollar o‘ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalaشتiriladi. Bosqichlari: vaziyatni tushuntirish, mos rollarni bo‘lib berish, maqsad va vazifalarni tushuntirish; o‘yin davomida o‘quvchilarning hatti-harakatlarini kuzatib borish; o‘quvchilarning hatti-harakatlari orqali ularga bilim olishlariga, ma’lum malaka va ko‘nikmalarni egallashlariga imkoniyat yaratish; o‘yin natijalarining tahlili; o‘yin natijalarini real hayotiy hodisalar bilan taqqoslash;

### **Loyiha usuli**

Bu usul bilim va malakalarni, tahlil qilish va baholashni nazarda tutuvchi ta’limning majmuaviy usulini amalga oshiradi. Loyiha usulida o‘quvchilar rejalashtirishda, tashkil qilishda, tekshirishda, tahlil qilishda va bajarilgan ishning natijalarini baholashda ko‘proq ishtirok etadilar. Ta’lim oluvchilar ayrim kichik loyiqa ishlarini, diplom va kurs loyihalari, bitiruv ishlarini ilmiy asoslangan holda loyihalashtiradilar, mustaqil bajaradilar, ularni yozadilar, taqdimot qiladilar, qo‘yilgan maqsad va natijalarini tahlil qiladilar.

### **Mustaqil o‘rganish usuli**

Ushbu usul ta’lim oluvchilarning o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishini, o‘z – o‘zini tekshiruv malakalarini, berilgan matnning mazmunini to‘liq va ongli ravishda bayon eta bilishiga qaratilgan usuldir. Bu usul vaqtiga bilan o‘tkazib turiladi, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish, darslik bilan ishslash va mustaqil amalaiy faoliyat bilan shug‘ullanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Har bir o‘quvchi alohida yoki umumiyl tarzda tashkil qilinadigan topshiriqni bajaradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning amaliy

faoliyatiga aralashmay, tashqaridan teskari aloqa- muloqot yordamida yo‘naltirib boshqaradi va nazorat qiladi.

### **Aqliy hujum**

Dars mavzusiga oid qo‘yilgan muammoni yechish yoki savolga javob topish maqsadida g‘oyalarni jamlash va saralash usuli. qatnashchilar birlashgan holda yechimi noma’lum muammoni yechishga yoki savolga javob topishga harakat qiladilar. Eng maqbul yechimni topish bo‘yicha shaxsiy g‘oyalarini ilgari suradilar. Bosqichlari: muammoli vaziyatni keltirib chiqarish; uning yechimini topish uchun o‘quvchilarni jalb qilish; turli yechimlar taqdimotini eshitish; yechimlarni solishtirish va tanlash; xulosalash;

### **Pinbord usuli**

Bu usul aqliy hujum metodining bir ko‘rinishi bo‘lib, unda qo‘yilgan muammoni hal qilish bo‘yicha g‘oyalar alohida qog‘ozchalarda yozilib, doskaga mixlanib boriladi. Ikkinci bosqichda esa, ular turli mezonlar bo‘yicha sinflarga bo‘linadi, saralanadi va muayyan tartibda doskada joylashtiriladi.

### **Boshqalarni o‘qitish orqali o‘rganish usuli**

Bu usulda ta’lim oluvchilar belgilangan mavzu yoki qo‘yilgan muammo bo‘yicha bir – birlariga axborotlarni almashadilar va o‘z bilganlarini boshqalarga o‘rgatadilar.

### **Lo‘g‘at bilan ishslash (diktant)**

bilimlarni baholashning joriy nazorat shakli; odatda qisqa vaqt davomida o‘tkaziladi; o‘quvchilarning o‘tilgan atama va tushunchalarni bilish darajasini tekshirish uchun o‘tkaziladi;

### **Konferensiya**

Oraliq nazoratning bir turi bo‘lib, asosan chorak yoki yil davomida ma’lum mavzular bo‘yicha mustaqil yozilgan ishlarning og‘zaki ma’ro‘za ko‘rinishidagi taqdimoti.

### **Juft-juft muloqot**

Biror mavzu bo‘yicha yonma-yon o‘tirgan o‘quvchilarni o‘zaro muloqotga chorlash; o‘zaro fikr almashish va ularni ba’zilarini tinglash;

### **Ovozga qo‘yish metodi**

Dars davomida bahsli vaziyatni keltirib chiqarish; yuzaga kelgan bahs munozarani boshqarish maqsadida, bahs yuritayotgan tomonlarning fikrlarini sinf bo‘yicha ovozga qo‘yish; har bir fikr bo‘yicha qarshi, rozi va betaraflarni aniqlash; tomonlarning dalillarini va fikrlarini tinglash; so‘ng yana ovozga qo‘yish; xulosalash;

### **«Charxpalak» usuli**

Mazkur metod guruhlarda ishslash usulining takomillashtirilgan ko‘rinishi bo‘lib, uning yordamida o‘quvchilar o‘rganiladigan material bo‘yicha ma’lum bilimga mustaqil ega bo‘lish, jamoa bilan ishslash malakasini ega bo‘lish, boshqalarni o‘qitish, axborot bilan almashish hamda jamao bo‘lib qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Nazorat savollari:

- 1.Metod so'zining lug'aviy ma'nosi nima?
- 2.Metod va uning turlari va vazifalari?
- 3.Metod va uslub farqli tamonlari nimalarda ko'rindi?
- 4.Uslub turlari?

#### **4-mavzu: Amaliy mashg`ulotlar, seminarlar va laboratoriya mashg`ulotlarini o`tkazish metodlari (4 soat)**

##### **REJA:**

1. Seminar darslarda ko`rgazmalilik.
2. Amaliy mashg`ulotlarda didaktik tahlil.

**Tayanch tushunchalar:** *O`qitishda ko`rsatmailik — bilish nazariyasi talabi, ko`rgazmali quroq emas, balki “ko`rsatmali quroq” ekani sababi, ko`rsatmali qurollarning turlari, tabiiy ko`rsatmalilik, tasviriy ko`rsatmalilik, grafik ko`rsatmalilik, texnik vositalar, so`z ko`rsatmaliligi.*

### **SEMINAR DARSLARDA KO`RGAZMALILIK**

**Seminar darslarda ko`rgazmalilik.** Didaktikaning eng muhim tamoyillaridan biri uning ko`rsatmaliligidir. Bu tamoyil amaliyotchi pedagog yoki metodist olimlarning istagi natijasi bo`lmay, balki olamni bilish jarayonining tabiatidan kelib chiqadi.

O`quvchi, ayniqsa, o`smir yoshidagi maktab bolasi bilishning hissiy bosqichini boshdan kechirayotgan bo`ladi, ya`ni bu yoshdagi bola sezgi muchalariga bevosita ta`sir etgan narsa-hodisalarnigina yaxshiroq idrok etadi. Shu boisdan adabiyot darslarida ham o`rni bilan ko`rsatma qurollardan foydalanish kutilgan didaktik samarani berishi mumkin. Ammo adabiyotning butun mohiyati so`z orqali yuzaga chiqadigan, joziba qudrati so`zda bo`lgan san`at ekanligidan kelib chiqib, ko`rsatma qurollarni ishlatishni suiste`mol qilmaslik zarur bo`ladi. Adabiyot mashg`ulotlarini kerak-nokerak sxemalar, chizma va rasmlar bilan to`ldirib tashlash kutilganidan teskari samara berishi ham mumkinligi unutilmagani ma`qul.

Shu o`rinda o`qitish tajribasida “ko`rsatma quroq” tushunchasi “**ko`rgazmali quroq**” tarzida noto`g`ri qo`llanilishiga e`tibor qaratish lozim. “**Ko`rgazma**” tushunchasi maxsus bir joyga muayyan doimiy yoki vaqt oralig`iga qo`yib qo`yiladigan va istalganda ko`rib ketiladigan narsalar yig`masini anglatadi. “Kitob ko`rgazmasi”, “texnika ko`rgazmasi”, “o`quv jihozlari ko`rgazmasi” va boshqa atamalar fikrimizga dalil bo`ladi. O`qitish jarayonining biror bosqichida foydalanishga mo`ljallab tayyorlangan didaktik vositalar esa, aynan o`quvchilarga **ko`rsatilib**, ularda muayyan hissiyot uyg`otish va tasavvur hosil qilish orqali bilim shakllantirishga qaratilgani uchun ham **ko`rsatma quroq** tarzida atalishi mantiqqa muvofiq bo`ladi. Tilimizda shunga yaqinroq ma`nolarni ifodalash uchun “qaynatma sho`rva”, “qovurma sho`rva”, “buyurtma kiyim”, “tarqatma material” tarzidagi birikmalar ishlatiladi. Ya`ni bu xil birikmalar uchun aniqlovchi emas, balki aniqlanmish muhimligi sezilib turadi. Asosiy gap quroq haqida ekani va uning otish yoki ko`rgazish uchun emas, balki aynan “ko`rsatish” uchun qo`llanilishi atamani keltirib chiqaradi.

O'zbek adabiyot o'qitish metodikasi ilmining ilk yirik vakillari: S. Dolimov, H. Ubaydullaev va Q. Ahmedovlar tomonidan tayyorlangan birinchi metodika darsligida ham bu tushuncha “**adabiyot o'qitishda ko'rsatmalilik**”, “**ko'rsatma qurol**”, “**ko'rsatma material**” tarzida qo'llanilgan<sup>8</sup>.

Ta'linda ko'rsatmalilik masalasi buyuk chek pedagogi **Yan Amos Komenskiyning** (1592-1670) “**Buyuk didaktika**” (1638), “**Rasmlardagi seziladigan narsalar olami**” (1658) singari kitoblarida ilk bor ilmiy asoslab berildi. Bu qarashlar shvesariyalik demokrat pedagog Iogann Genrix Pestalossining (1746-1827) “Lingard va Gertruda” (1787), “Gertruda o'z bolalarini qanday o'qitadi” (1801), “Oqqush qo'shig'i” (1826) kabi asarlarida yanada rivojlantirildi. Ta'linda ko'rsatmalilik masalasida rus pedagogi **K. D. Ushinskiy** (1824-1871)ning “Bolalar dunyosi” (1861), “Odam tarbiya predmeti sifatida. Pedagogik antropologiya tajribasi” (1869) asarlari bilan qo'shgan hissasi ulkanligini ham ta'kidlash kerak. Bolalarning yosh xususiyatlari va ularning turli bosqichdagi bilish faoliyatini puxta o'rgangan K. Ushinskiy o'z asarlarida ta'lim kechimi mavhum so'zga emas, konkret obrazga tayangan holda olib borilganda ko'proq samara berishini aytar ekan, obrazli qilib: «**Darsga olib kirilgan surat soqov bolani ham gapirtirib yuboradi**»,— degan.

## AMALIY MASHG`ULOTLARDA DIDAKTIK TAHLIL

Mumtoz pedagog-olimlarning qarashlarini hozirgi zamon tarbiyashunoslarining tadqiqotlari ham tasdiqlaydi. Bilish jarayonining bosqichlari tabiiy ravishda ta'lim ko'rsatmali bo'lishini taqozo qiladi.

Aslida, har qanday badiiy asarning o'zi voqelikning jonli manzaralarini aks ettirganligi bilan real hayotning ko'rsatma qurolidir. Lekin shunday holatlar ham bo'ladiki, yo hayotning o'zidagi biror ashyo, yoki san'atning boshqa turiga doir biror asar, yoxud inson tomonidan yaratilgan biror narsa-predmet biror adabiy matnning o'quvchilar tomonidan to'laroq o'zlashtirilishiga xizmat qilishi mumkin. Shunday holatlarda adabiyot bo'yicha o'tkaziladigan mashg`ulotlarda ham ko'rsatmalilik muayyan ahamiyat kasb etadi.

Darsda va darsdan tashqari mashg`ulotlarda ko'rsatma qurollardan foydalanish bir-biridan jiddiy farq qiladi. Adabiyot bo'yicha darsdan tashqari mashg`ulotlarda o'quvchilarning biror san'at turi borasidagi tasavvurlarini kengaytirish, yo biror badiiy asar yuzasidan tayyorlangan kino yoki videofilm yoxud spektakl, yo bo'lmasa, tasviriy san'at asari qanday chiqqanligini bilish maqsadida turli ko'rsatmalardan foydalanish mumkin. Bunday ko'rsatma qurollar katta didaktik samara keltirishi shubhasiz.

Adabiyot darslarida esa ko'rsatma qurol o'rgatilayotgan badiiy asarning o'quvchilar tomonidan to'laroq o'zlashtirilishiga bevosita xizmat qiladigan darajada va shunga kerakli miqdorda bo'lgandagina foyda keltiradi. Gap shundaki, darsdan tashqari mashg`ulotlarda ko'rsatma qancha ko'p bo'lsa,

<sup>8</sup>Долимов С., Убайдуллаев Х., Ахмедов К. Адабиёт ўқитиши методикаси. -Т.: “Ўқитувчи”, 1967. 198-202-б.

shuncha yaxshi, darsda esa ko`rsatma quroq faqat kerakli miqdorda va yuqori sifatga ega bo`lsagina foyda keltiradi.

Metodik adabiyotlarda ko`rsatma qurollar yordamida badiiy asarni o`zlashtirish kechimida o`quvchilarning faol va nofaol ishtiroki farqlaniladi<sup>9</sup>. Faol ishtirok deyilganda, ko`rsatma qurollarning o`quvchilar hissiyotiga kuchli ta'sir ko`rsatishi, ularda munosabat uyg`otishi, muhokamaga chorlashi kabi jihatlar ko`zda tutiladi. Biror badiiy asar yuzasidan ishlangan rangtasvir asari, tayyorlangan spektakl yoki videofilm, telefilm, kinofilm kabilari o`quvchilarda, albatta, munosabat uyg`otadi. Ulardan faollik talab qilinib, matn bilan ko`rsatma o`rtasidagi bog`liqlikni topish lozim bo`ladi.

SHuningdek, shunday ko`rsatma qurollar ham borki, ular muhokamani emas, balki indamay qabul qilishni taqozo etadi. O`shanda uning didaktik ahamiyati munosabat uyg`otgandagidan ko`ra kuchliroq bo`lishi ham mumkin. Chunonchi, Boburning “Bahor ayyomida” deb boshlanadigan g`azaliga yozilgan musiqa va shu asosda aytilgan qo`shiq o`quvchilarda muayyan kayfiyat uyg`otishining o`zi bilan shu asarning tushunilishiga katta ijobiliy ta'sir ko`rsatadi. Uni muhokama qilish, zarurat bo`lmagan holda, vaqtini ortiqcha isrof qilishga olib keladi, xolos.

Aytilganlardan anglashiladiki, ko`rsatmalarining faol yoki nofaol xarakteri emas, balki ularning mohiyati adabiyot darslari sifatini oshirishda kata o`rin tutadi.

Zamonaviy pedagogika ilmida ko`rsatma qurollarning turlari har xil tasnif qilinadi. Chunonchi, rus metodist olimlari T.V.Chirkovskaya va N.A.Stancheklar «Adabiyot o`qitish metodikasi» qo`llanmasida ko`rsatmali qurollarni 1) ko`rildigan ko`rsatma qurollar; 2) eshitiladigan ko`rsatma qurollar; 3) aralash ko`rsatma qurollar tarzida uch katta guruhga bo`lishadi<sup>10</sup>. Bunda ular ko`rsatmalarining qaysi sezgi muchasi bilan qabul qilinishiga asoslanadilar. Umuman olganda, bu tasnif ilmiy asosga ega va undan foydalanish mumkin.

Shu munosabat bilan ta`kidlash joizki, o`z vaqtida rus metodisti V.Golubkov haqli ravishda ta`kidlab o`tganidek: “**Badiiy asarni to`la va yaxlit tushunish uchun faqat konkretlashtirish emas, balki o`rni bilan abstraktlashtirish ham talab etiladi**”<sup>11</sup>. Chindan ham yirik hajmli, ramziy ma`noli badiiy asarlar yoki undagi personajlar tabiatini anglab olish uchun tasvirdan kelib chiqadigan ma`nolarni umumlashtirish ham talab etiladi. Chunonchi, “Qutlug` qon” romanida Yo`lchi tabiatida kurashchanlik paydo bo`lishining bosqichlari yoki “Kecha va kunduz” asarida Zebi tabiatidagi soddalik, bayovlik aks etgan o`rinlarning muayyan bir sxemaga solingan ko`rinishi bu timsollar mohiyatini ilg`ashni osonlashtirishi mumkin.

<sup>9</sup> Резь З. Я. и др. Методика преподавания литературы. Москва: «Просвещение», 1985. с. 329.

<sup>10</sup> Резь З. Я. и др. Методика преподавания литературы. Москва: «Просвещение», 1985. с. 331-333.

<sup>11</sup> Голубков В. В. Методика преподавания литературы. Москва: 1962. с. 192.

Ta'kidlash joizki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim kechimi ko`rsatma qurollar bilan yuqori darajada ta'minlangan. Shuning uchun ham ularda ko`rsatma qurollarni yuqoridagi kabi tasniflash maqsadga muvofiq bo`lishi mumkin. Lekin milliy o`qitish tizimida, umuman, ta'limning, xususan, adabiyot o`qitish kechimining g`oyat darajada kam ko`rsatmalashtirilgani metodist olimlar va amaliyotchi o`qituvchilardan ko`rsatma qurollarni tasniflashga o`zgacharoq yo`sinda yondashishni talab qiladi. Chunonchi, o`zbek maktablarida ko`pincha tabiat hodisalari, inson qo`li bilan yaratilgan va ob`ektiv ravishda mavjud bo`lgan narsalar ham badiiy matnni tushunishni osonlashtirish vositasi bo`lib xizmat qilishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, ko`rsatma qurollarni quyidagi yo`sinda tasnif etish ma`qul ko`rildi:

1. Tabiiy ko`rsatma vositalar.
2. Tasviriy ko`rsatma qurollar.
3. Grafik ko`rsatma qurollar.
4. So`z ko`rsatmaliligi.

**Tabiiy ko`rsatma vositalar** tevarak-atrofda o`quvchilarni o`rab turgan narsa va hodisalar bo`lib, o`rnı bilan ulardan foydalanish adabiyot mashg`ulotlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ma'lumki, maktab adabiy ta'limida tabiat hodisalari, odamlarni o`rab turgan narsa-predmetlar to`g`risidagi badiiy asarlar katta o`rin egallaydi. Ana shunday asarlar o`rganilayotganda, atrofda turgan, maxsus tayyorlash talab qilinmaydigan beminnat ko`rsatma quppardan o`rinli foydalana bilish dars samaradorligini sezilarli oshiradi.

Daryo, so`qmoq, tog`, cho`l, osmon, og`och, gul, qir, adir, lola singari tabiat unsurlari yoki parta, uy, eshik, deraza, sinf xattaxtasi kabi turmush predmetlaridan o`rnida foydalanish ayrim asarlarni chuqurroq o`rgatishga xizmat qilishi mumkin.

**Tasviriy ko`rsatma qurollar** pedagogik amaliyotda keng qo`llaniladi va adiblar hamda ayrim asar qahramonlarining portretlari, biror badiiy asar mazmuni asosida ishlangan rasm, sahna asarlaridan olingan lavha surati, ijodkorlar haqidagi o`quv albomlari singarilarni o`z ichiga oladi.

O`quvchilar rasmdagi ifoda bilan badiiy asar matnidagi tasvirlarni chog`ishtirish orqali o`zlarining bu boradagi tushunchalarini kengaytirib boradilar.

**Grafik ko`rsatma qurollar** ijtimoiy-estetik davrlar, adabiy-badiiy bosqichlar, adabiy yoki ijodiy jarayon, ayrim adabiy personajlarning tabiatida kechgan o`zgarish, evrilish bosqichlari aks etgan chizma va jadvallarni o`z ichiga oladi.

Adabiyot mashg`ulotlarida adabiy davrlar va ularning ichki bo`linishlari, adiblarning hayot yo`li, ijod bosqichlari, yaratgan asarlari, ularning xronologiya yoki janrlar asosidagi tasnifi aks etgan ma'lumotlar grafik yo`sinda aks ettiriladi. Bu turdagи chizma va jadvallar, garchi, o`quvchilarning hissiyotiga kuchli ta'sir etmasalarda, adabiy ma'lumotlarni o`zlashtirida bir emas, ikki sezgi muchasi

qatnashishini ta'minlaydi. Bu esa bilimlarning mustahkamroq bo'lishiga olib keladi.

Shuni alohida aytib o'tish kerakki, ko'rsatmali qurollarning sinf xonasiga olib kirilishining o'zi hali uning pedagogik samaradorligi uchun kafolat bo'la olmaydi. O'qituvchi har bir ko'rsatma qurolning samarali ishlashini ta'minlay olishi kerak. Buning uchun adabiyot muallimidan ko'rsatma qurollarni o'rgatilayotgan asarning tabiatini va sinfdagi o'quvchilarning tayyorlik darajalaridan kelib chiqqan holda qo'llay bilish talab etiladi. Buning uchun o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida muayyan matn yuzasidan tayyorlangan muayyan ko'rsatmadan foydalanishga doir savollar tuzishi lozim bo'ladi. Bu savollar o'quvchilarni faollashtiradigan, ularni matnning mohiyatini anglashga yaqinlashtiradigan yo'sinda tuzilishi kerak.

**So'z ko'rsatmaliligi** adabiyot o'qitishda eng ko'p qo'llaniladigan va katta samara beradigan ko'rsatma qurol turidir. Bu ko'rsatma qurol har bir adabiyot o'qituvchisiga tabiat tomonidan muayyan miqdorda berilgan, ma'lum darajada oliy adabiy ta'lim yo'li bilan takomillashtirilgan bo'ladi. Adabiyot o'qituvchisi hamisha o'zi bilan birga yuradigan bu quroldan foydalanish samaradorligini tinimsiz ravishda oshirib borishga urinishi lozim. Shundagina u o'tgan mashg'ulotlar ta'sirli hamda o'rganilayotgan badiiy asar shunchaki o'zlashtiriladigan matn emas, balki o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qiladigan bo'ladi.

Aslida adabiyot darslarida so'zdan ta'sirliroq ko'rsatma bo'lishi mumkin emas. Ammo so'zning qudratidan o'qituvchi omilkorlik bilan foydalana olishi, so'z yordamida o'quvchilarning tuyg'ularini jumbushga keltiradigan vaziyatlar yarata bilsagina, u kutilgan samarani beradi. Chunki har qanday yuqori saviyali ko'rkm asar bezovta bo'lgan tuyg'ular mahsuli o'laroq, o'quvchilarning tuyg'ularini ham muvozanatdan chiqargandagina teran anglanadi. So'zning jozibasini anglatish uchun o'quvchilarga jozibali so'z bilan ta'sir ko'rsata bilish lozim.

Ayrim o'qituvchilar so'z ko'rsatmaliligini ifodali o'qish debgina tushunishadiki, bu unchalar ham to'g'ri emas. Chunki badiiy matnni chiroyli talaffuz qilishning o'zi uning mohiyatini oydinlashtira olmaydi. Muhimi, o'qituvchining nutqi aniq, ta'sirli, o'quvchilar ko'ngliga etib boradigan bo'lishi lozim. Shundagina u o'rgatilayotgan badiiy asarning mohiyatini teran anglatishga, undagi yashirin jihatlarni tuydirishga, ko'rkm so'zdan barcha o'quvchilarni ta'sirlantirishga erisha oladi.

Ilm-fan taraqqiyoti ko'z ilg'amas, tasavvur qamray olmas darajada shiddat bilan borayotgan hozirgi davrda adabiyot darslarida **texnik vositalardan** foydalanish ham jiddiy ahamiyat kasb etadi. Texnikaning imkoniyatlari ortib borgani sari u o'quv jarayoniga chuqurroq kirib borishi kerak.

Kelajakda texnologik pedagogikani yo'lga qo'yish to'g'risida fikrlar bildirilmoqda. Binobarin, so'z ta'sirchanligiga asoslangan adabiy ta'limga ham texnik taraqqiyot yutuqlarini joriy etish bugunning talabidir. Chunki o'quv

texnikalari badiiy so`zni hissiy obrazga aylantirish, o`quvchilarning bir necha sezgi muchalariga bir yo`la ta`sir ko`rsatish imkoniyatiga egadir. Bu hol ta`limning sifatini oshiradi.

Videovositalar, televizor, magnitofon, radiola singari ashylar, bevosita adabiyotga doir ko`rsatmalilikni ta'minlaydigan o`quv filmlari ham ma'lum ahamiyatga egadir. Ulardan o`rinli foydalanish, ta'lim jarayonining so`zdangina iborat bir xilligiga rang-baranglik kiritadi. Bu hol o`qitish kechimining qiziqarli va samarali bo`lishini ta'minlaydi.

Nazorat savollari:

- 1.Texnik vositalarning metodikadagi yutuq va kamchiliklari qanday?
- 2.Ko`rsatma qurollar turlari nechaga bo`linadi va uning metodikadagi ahamiyatli tamonlari
- 3.Ko`rsatmali qurollar haqida olimlar fikrlariga mulohazalariningiz nimalardan iborat?

### **Adabiyotlar:**

- Dolimov S., Ubaydullaev H., Ahmedov Q., Adabiyot o`qitish metodikasi, -T.: «O`qituvchi», 1967. 198-204, 268-275-betlar.
- Rezъ Z. Ya. i dr., Metodika prepodavaniya literaturы, -Moskva: «Prosveshenie», 1977. str. 322.
- Zunnunov A., Hotamov N., Ibrohimov A., Esonov J. Adabiyot o`qitish metodikasi. -T.: O`qituvchi, 1992.
- Yo`ldoshev Q., Madaev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o`qitish metodikasi. -T.: Universitet, 1994.
- Russkiy yazык i literatura v uzbekskoy shkole (jurnal). 1985. №1 str. 54.
- Ernazarov H. Adabiyot darslarida diafilm, -T.: 1987.

### **Adabiyotlar ro`yxati:**

1. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: TGPU im. Nizami, 2006.
2. Yo`ldosheva S.M. Oliy va kasb-xunar ta`limida pedagogik texnologiyalar. Toshkent. O`zMU. OPI. 2009.
3. Yo`ldoshev J. va Xasanov S. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent TIU. 2006.
5. Krutskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T.: O`qituvchi, 2006
6. Toshimov R.Yu. Pedagogik psixologiya. Ma`ruzalar matni. T.: 2002.
7. Xalilova. Kattalar ta`limi bo`yicha mutaxassislarni tayyorlash. Seminar-trening. Tarqatma materiallar. Toshkent. 2009.


## VIZUAL MATERIALLAR


*Insonni, uning ma`naviy olamini  
kashf etadigan yana bir qudratli  
vosita borki, u ham bo`lsa  
adabiyotdir. Adabiyotning  
insonshunoslik deb, shoir va  
yozuvchilarimizning esa inson  
ruhining muhandislari,  
deb ta`riflanishi  
bejiz emas, albatta.*


Islom Karimov



**“Adabiyot masalasi-  
bu ma`naviyat masalasidir”**







«Минг марта эшитгандан кўра бир марта кўрган яхши» деган нақлни ҳамма билади. Оғзаки равишда материалларни ўзлаштириш кўрсаткичи 10%, бўлган шароитда дарс ўтиш самарасиз бўлади. Машғулотларда ўкув материални кўргазмали шаклда тақдим этиш лозим.

2

### Darslik va o`quv qo'llanmalar ro'yxati

#### Asosiy:

1. G`ulomov A., Qodirov M. Ona tili o`qitish metodikasi. T., «Universitet», 2001.
2. Qodirov M. O`zbek tili o`qitish metodikasi (ma`ruzalar matni), T., «Universitet» 2000.
3. Ne'matov H., G`ulomov A., Mahmudov N., Qodirov M., Abduraimova M. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining V-IX sinflari uchun «Ona tili» dasturi. «Ona tilidan yangi tahrirdagi Davlat ta`lim standarti, o`quv dasturi va mavzuiy rejalashtirish», T., 2004.
4. To`xliev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O`zbek tili o`qitish metodikasi. T., Yangi asr avlod, 2006.

#### Qo`shimcha:

5. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
6. Ne'matov H., G`ulomov A. Maktabda til sathlarini o`zaro bog`lab o`rganish. T., 1992.
- 7.. Ne'matov H. , G`ulomov A., Ziyodova T. O`quvchilarning so`z boyligini oshirish. T., 1997.
8. G`ulomov A., G`obilova B. Nutq o`stirish mashg`ulotlari. T., «O`qituvchi», 1995.
9. Muhiddinov M. O`quv jarayonida nutq faoliyati. T., «O`qituvchi», 1995.
10. G`ulomov A., Shukurov A. Ona tili darslarida o`quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish. T., «O`qituvchi», 1989.
11. Nurmonov A., Rasulov R. O`zbek tili jadvallarda. T., «O`qituvchi», 1992.

12. Abdurahmonov G` . Punktuatsiyani o`qitish metodikasi. T., «O`qituvchi», 1968.
13. Mirzaev A. Diktant metodikasi. T., «O`qituvchi», 1979.
14. Nazarov K. O`zbek tili va adabiyotidan baho me`yori. T., «O`qituvchi», 1990.
15. Madaev O. Insho qanday yoziladi? T., «O`qituvchi», 1991.
16. YOqubbekova M. Til va adabiyot ta`limida insho. T., 2003.
- 17.Roziqov O. O`zbek tilidan dars tiplari, T., «O`qituvchi», 1976.
18. Roziqov O., Og`aev S., Muhiddinov M., Azizov B. Ta`lim texnologiyasi. T., «O`qituvchi», 1999.
19. Abduraimova M. Ona tili ta`limida ilg`or pedagogik texnologiya, T., 2001, 2005.
20. Rahimova O. Ona tili darslarini tashkil etishning pedagogik texnologiyasi. T., 2004.
21. Do`stmurodova O. Ona tili ta`limi yangi pedagogik texnologiyasining mohiyati. T., 2005.
22. «O`zbek tili» doimiy anjumani yig`ilishlarining materiallari. Samarqand-1991, qarshi- 1993, Jizzax-1995, Toshkent -1997, Buxoro-1999, Farg`ona- 2001, Namangan -2003, Urganch-2005, Termiz-2007.
23. Mahmudov N. va boshqalar. O`zbek tilida ish yuritish. T., 1990.
- 24.G`ulomov A., Ne`matov H. Ona tili ta`limi mazmuni. T., «O`qituvchi», 1995.
- 25.Baranov M. T. va boshqalar. Metodika prepodavaniya russkogo yazyka. M., «Prosvetenie», 1990.
- 26.Tekuchev A.V. Metodika russkogo yazyka v sredney shkole. M., «Prosveshenie», 1980.
- 27.Tolipov O`Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.T.,Fan,2006.
- 28.Ziyodova T. «5-sinflar uchun elektron-didaktik slaydlar to`plami”.T,2006.
- 29.Ziyodova T.»Ona tilidan rangli proekcion slaydlar to`plami: 1 va2-qismlar”.Samarqand,2002.
30. Tolipov O` ,Usmonboeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari”,T,”Fan”,2006.

#### **Dissertatsiyalar:**

1. Yunusov Q.”Kichik maktab yoshidagi ukuvchilarda orfografik xushyorlikni shakllantirish.” NDA,T,1993.
2. Toshev I.”Umumta`lim maktablarida qushma gapning yangicha talqini”.NDA,T.1999.
3. Qurbonova G.N. “Tibbiyat institutlarining rus guruqlarida ”O`zbek tili”fanini o`qitish jarayonida talabalarning ixtisosiy nutqi ustida ishlash metodikasi».NDA,T,2000.
4. Bo`ronova SH.”Ta`lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinflarida o`zbek tilini o`qitishning ilmiy-metodik asoslari.»,NDA,T,2000.

5. Mirjalolova L.R.”O’zbek tili mashg’ulotlarida bolalarni savol-javobga o’rgatishning nazariy-metodik asoslari”.NDA,T,2002.
6. Muxammadjonova G.Z.”Darsdan tashqari mashg’ulotlarda rusiy zabon o’quvchilarning o’zbekcha nutqini o’stirish metodikasi».NDA,T,2003.
7. Alovutdinova N.”Ona tili darslarida o’quvchilarning mustaqil fikrlash ko’nikmasini shakllantirish omillari”.NDA,T,2004.

**Monografiyalar:**

8. G’ulomov A.”Ona tili o’qitish prinsiplari va metodlari”.T,1992.
9. G’ulomov A.. Ona tili darslarida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari. T., 1989.

**Internet ma’lumotlari:**

1. [www.turk\\_dili.google.com.tr](http://www.turk_dili.google.com.tr)
2. [www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)
3. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)
4. [www.thinsan.com](http://www.thinsan.com)

**Darslik va o’quv qo’llanmalar ro’yxati**

**Asosiy:**

1. Dolimov S., Ubaydullaev H., Ahmedov Q., Adabiyot o’qitish metodikasi, -T.: “O’qituvchi”, 1967.
2. Zunnunov A. va bq. Adabiyot o’qitish metodikasi, -T.: “O’qituvchi”, 1992.
3. Yo’ldoshev Q. va bq. Adabiyot o’qitish metodikasi. -T.: 1994. Qo’shimcha:
4. Zunnunov A. O’zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar. –T.: “O’qituvchi”, 1973.
5. Yo’ldoshev Q. Adabiyot o’qitishning ilmiy-nazariy asoslari. -T.: “O’qituvchi”, 1996.
6. Rez Z. Ya. i dr., Metodika prepodavaniya literaturi, -M.: 1995.
7. Yo’ldoshev Q. Adabiy saboqlar 7. –T.: “Sharq”, 2005.
8. Dolimov S. Ta’limiy bayon va insho. -T.: “O’qituvchi”, 1968.

**Dissertasiyalar:**

1. Egamberdieva F. O. Adabiy ta’limga ilg’or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish metodikasi. PFN ilmiy darajasi uchun yozilgan diss. –T.: 2005.
2. Husanboeva Q. Adabiy ta’lim jarayonida o’quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatishning ilmiy-metodik asoslari. PFD ilmiy darajasi uchun yozilgan diss. –T.: 2007.

**Internet ma’lumotlari:**

1. [www.turk\\_dili.google.com.tr](http://www.turk_dili.google.com.tr)
2. [www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)



## “ADABIYOT O’QITISH METODIKASI” FANI BO`YICHA

### TEST SAVOLLARI

**1.“Adabiyot o’qitish metodikasi” qaysi fanlar tizimiga kiradi?**

- A) Pedagogika.
- V) Adabiyotshunoslik.
- S) Filologik.

**2.“Adabiyot o’qitish metodikasi”ning fan ekanini ta’minlaydigan omillarni ko`rsating.**

- A) O`quv rejasida borligi.
- V) O`z tekshirish ob’ektiga egaligi, bu ob’ektning ijtimoiy ahamiyati borligi, o’z tadqiqot metodlariga egaligi.
- S) Amaliyotda kerak bo`lishi.

**3.Adabiyot metodikasiga yondosh fanlar qatorini ayting.**

- A) pedagogika, psixologiya.
- V) tilshunoslik, adabiyotshunoslik, til o’qitish metodikasi.
- S) A va V bandlardagi fanlar.

**4.“Adabiyot o’qitish metodikasi” fanida qo’llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlari qaysilar?**

- A) filologik, parapsixologik.
- V) kuzatish, so`rov, maktab hujjatlari bilan ishslash, umumlashtirish va qiyoslash, tajriba-sinov o`tkazish, laboratoriya, matematik-statistik.
- S) kuzatish, maktab hujjatlari bilan ishslash, tajriba-sinov o`tkazish, laboratoriya.

**5.O`zbek xalqi hayotida adabiy tarbiyaga qanday e’tibor berilgan?**

- A) adabiyot o’qitilmagan.
- V) adabiyot o’qitilgan
- S) adabiyot maxsus o’qitilmasada, yoshlarda badiiy so`zga muhabbat shakllantirilgan.

**6.Mustaqillik davridagi adabiyot o’qitishning mohiyati nimadan iborat?**

- A) yuksak ma’naviyat shakllantirish.
- V) asar g`oyasini topishga o`rgatish.
- S) kitobxonlarni tarbiyalash.

**7.Adabiyot o’qitishning maqsadi nimadan iborat?**

- A) adabiyot tarixini o`rgatish.
- V) barkamol shaxs ma’naviyatini shakllantirish.
- S) adabiy meros bilan tanishtirish.

**8.Adabiyot o’qitishning mazmuni qaysi unsurlardan iborat?**

- A) o`quv rejasi, dastur, darslik, o`quv qo’llanmasi, majmua, ko`rsatmali qo’rollar.
- V) yillik reja, kundalik reja-ko`chirma.
- S) darslikdagi mavzular, metodik qo’llanma.

**9.Interfaol metodlarning mohiyati nimada?**

- A) mustaqil tarzda izlanadigan, tashabbuskor o`quvchi shakllantirish.
- V) o`quvchilarning xotirasini kuchaytirish, ularga ko`proq bilim berish.
- S) o`yin orqali o`qitish.

**10.Interfaol usullar qaysi pedagogik yo`nalishga tayanadi?**

- A) konstruktiv pedagogika.
- V) hamkorlik pedagogikasi.
- S) xalq pedagogikasi.

**11.Interfaol usullar tayanadigan pedagogik falsafa qaysi?**

- A) materializm, idealizm, eksiztensializm.
- V) transmissiya.

S) transaksiya.

**12. Interfaol metodlar qaysi ilmiy tamoyillarga tayanadi?**

A) izchillik, ilmiylik, tarixiylik.

V) birligida ta'lim, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqotchilik va muammoli ta'lim.

S) tizimlilik, hamkorlik pedagogikasi, tarbiyaviy ta'lim.

**13. Adabiyot o'qitish kechimidagi asosiy ishni ko`rsatib bering.**

A. Nutq o`stirish.

V. Badiiy matn tahlili orqali o`quvchilarda ezgu ma`naviy sifatlarni tarkib topdirish.

D. Bolalarda kitobxonlikni rivojlantirish.

S. O`quvchilarda notiqlik ko`nikmalarini shakllantirish.

**14. "Adabiyot o'qitish metodikasi" fanining ilmiy tadqiqot metodlarini ko`rsating.**

A. Deduksiya, induksiya.

V. Solishtirish, tahlil.

D. O`quvchilar ijodini o`rganish, maktab hujjatlarini o`rganish, kuzatish, so`rov, solishtirish, matematik tahlil, laboratoriya, eksperiment.

S. Matematik tahlil.

**15. Qadim Turkistonda adabiyot o'qitish nimaga qaratilgan?**

A. Matnni yodlatishga.

V. She'r yozishni o`rgatishga.

D. Dars berish metodikasini o`zlashtirishga.

S. Adabiy matnlar tahlili orqali yoshlarda ezgu ma`naviyat singdirishga.

**16. Adabiyot o'qitishning asoslarini toping.**

A. O`quvchilar bilmini oshirish yo`llari.

V. Adabiyot o'qitish metodlari.

D. Didaktik tamoyillar.

S. Adabiyot o'qitishning maqsad, vazifa va mazmuni.

**17. Ta'lim metodi tushunchasining tarkibi aks etgan javobni toping.**

A. O`quvchi, o`qituvchi va ta'lim mazmunining o`zaro munosabatlari.

V. Samarali o'qitish yo`llari.

D. Yangi usullar.

S. Innovatsiyalar.

**18. Adabiyot o'qitish metodlari to`larroq ko`rsatilgan qatorni belgilang.**

A. Ijodiy o`qish.

V. Evristik.

D. Tadqiqiy, reproduktiv.

S. Ijodiy o`qish. Evristik. Tadqiqiy. Reproduktiv. Muammoli.

**19. Bugungi adabiy ta'lim o`quvchini kim deb hisoblaydi?**

A. Ta'lim kechimining ob'ekti.

V. Ta'lim kechimining ishtirokchisi.

D. O`qitish kechimining tashkilotchisi.

S. O`qitish kechimining sub'ekti.

**20. Adabiyot o'qitish jarayonida o`quvchi va o`qituvchi munosabatlari xarakteri qanday?**

A. O`qituvchi o`qitadi, o`quvchi o`qiysi.

V. O`qituvchi bilan o`quvchi o`qitish jarayonining teng huquqli ijrochilari.

D. O`qituvchi ta'lim kechimining hukmroni.

S. O`quvchi o`qituvchining aytganini bajarishi lozim bo`lgan shaxs.

**21. Ko`rsatmali qurollardan foydalanishda tayaniladigan asosni belgilang.**

A. Olamni bilishning yo`li.

V. Adabiyotni o`rgatish vositasi.

D. Olamni ko`z orqali idrok etish oson ekani.

S. O`zlashtirishni engillatish usuli.

**22.Qaysi ko`rsatmali quroq turi adabiyot darslarida ko`p qo'llaniladi?**

A. Tabiiy ko`rsatmalilik.

V. Badiiy so`z ko`rsatmaliligi.

D. Tasviriy ko`rsatmalilik.

S. Grafik ko`rsatmalilik.

**23.Qo`pol xatoning asosiy belgisini ayting.**

A. O`quvchining savodi yomonligini ko`rsatadi.

V. O`qituvchining saviyasi pastligini anglatadi.

D. Imlo lug`ati bilan ishlanmaganligini bildiradi.

S. Bahoga salbiy ta`sir qiladi.

**24.Qo`pol bo`limgan xatoning asosiy belgisini ko`rsating.**

A. Inshoning bahosiga ta`sir qiladi.

V. Insho bahosiga salbiy ta`sir ko`rsatmaydi.

D. O`qituvchi bunday xatoni to`g`rilamaydi.

S. O`quvchi bunday xato ustida ishlamaydi.

**25.O`quvchi fikrlashining nochorligini ko`rsatuvchi eng jiddiy xato turini belgilang.**

A. Imlo xato.

V. Tinish xato.

D. Imlo va tinish xato.

S. Uslub xatosi.

**26.Uslub xatosiga bunchalik jiddiy qaralishi sababini izohlang.**

A. Uslub xatosi insho tekshirishni qiyinlashtiradi.

V. O`quvchining fikri tiniq emasligini ko`rsatadi.

D. Inshoga yaxshi tayyorlanmaganligini bildiradi.

S. Intizomsizlik tufayli yo`l qo`yiladi.

**27.Dars tahlili turlarini ayting.**

A. Ilmiy tahlil.

V. Metodik tahlil.

D. Ilmiy, metodik, didaktik, umumpedagogik tahlillar.

S. Didaktik tahlil.

**28.Umumpedagogik tahliliga xos belgilarni ayting.**

A. Darsning ilmiyligini aniqlash.

V. Darsning didaktik tamoyillarga mosligini tekshirish.

D. Darsning metodik puxtaligini baholash.

S. Darsni har tomonlama kompleks tahlil qilish.

**29.Ta`limning interfaol usuli uchun javoblarining sifatidan ko`ra miqdori muhim ekani sababi nimada?**

A. To`g`ri bo`lmasa ham ko`p fikr aytishga urinish o`quvchini mustaqil fikrlashga o`rgatadi.

V. Miqdor o`zgarishlari sifat o`zgarishlariga olib keladi.

D. Javobning sifati muhim bo`lishi kerak.

S. Miqdor bilan sifat o`zaro uyg`un bo`lishi kerak.

**30.Kichik guruuh a`zolarining faolligini ta`minlaydigan omil nima?**

A. Boshqa guruhlardan ortda qolmaslik.

V. Hammaga bir xil baho qo`yilishi, jamoa oldidagi mas`uliyat, birligda ishlash zavqi, hammaning hissa qo`shishi mumkinligi.

D. Boshqalar oldidagi mas`uliyat hissi.

S. Jamoa tuyg`usi.

**31.Adabiyot o`qituvchisiga qo`yiladigan kasbiy talablar qaysilar?**

A. Badiiy ijodkorlik, badiiy ijrochilik, pedagogik amaliyotchilik, tashkilotchilik, badiiy vositachilik, pedagogik sherikchilik.

V. Xushmuomalalik, ijodkorlik.

D. O`quvchilarni sevish, bilimdonlik.

S. Yangi adabiyotlar bilan tanishlik, notiqlik.

**1. A,**

**2.V,3.S,4.V,5.S,6.A,7.V,8.A,9.A,10.A,11.S,12.V,13.V,14.D,15.S,16.S,17.A,18.S,19.S,20.V,  
21.D,22.D,23.V,24.V,25.S,26.V,27V,28.S,29.A,30.V,31.A**

## **«ONA TILI O`QITISH METODIKASI» DAN TEST SAVOLLARI**

1. Ona tili darslarida o`qituvchi tomonidan bilimlar tayyor holda beriladigan metod ko`rsatilgan qatorni aniqlang.  
A) tadqiqot (ijodiylik) metodi  
V) tushuntirish-namoyish metodi  
S) reproduativ metod  
D) muammoli bayon qilish metodi
  2. Ona tili darslarida ko`rgazmali qurollardan qachon foydalanish mumkin?  
A) Avvalgi darsda o`tilgan mavzuni takrorlashda  
V) Yangi mavzuni izohlash (o`tish) da  
S) Yangi mavzuni mustahkamlashda  
D) V va S javoblar to`g`ri
  3. Grammatik tahlil ona tili darsining qaysi tipida o`tkaziladi?  
A) yangi mavzu o`tiladigan darslarda  
V) o`quvchilar bilimini nazorat qilish darslarida  
S) o`tilganlarni takrorlash va umumlashtirish darslarida  
D) o`quv yili boshidagi takrorlash darslarida
  4. Darslikda berilgan mashqlardagi tarixiy so`zlarni izohlashda qaysi lug`atlardan foydalanish mumkin?  
A) «Navoiy asarlari lug`ati» (T., 1972)dan  
V) «O`zbek tilining izohli lug`ati» (M., 1981) dan  
S) «O`zbek klassik adabiyoti asarlari lug`ati» (T., 1952)  
D) A va S bandlardagi lug`atlardan
- 1.V,2.D,3.S,4.D.

## **NAZORAT SAVOLLAR**

1. “Adabiyot o`qitish metodikasi” qaysi fanlar tizimiga kiradi?
2. “Adabiyot o`qitish metodikasi”ning fan ekanini ta`minlaydigan omillarni ko`rsating.
3. Adabiyot metodikasiga yondosh fanlar qatorini aytинг.
4. “Adabiyot o`qitish metodikasi” fanida qo`llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlari qaysilar?
5. O`zbek xalqi hayotida adabiy tarbiyaga qanday e`tibor berilgan?
6. Mustaqillik davridagi adabiyot o`qitishning mohiyati nimadan iborat?
7. Adabiyot o`qitishning maqsadi nimadan iborat?
8. Adabiyot o`qitishning mazmuni qaysi unsurlardan iborat?
9. Interfaol metodlarning mohiyati nimada?
10. Interfaol usullar qaysi pedagogik yo`nalishga tayanadi?
11. Interfaol usullar tayanadigan pedagogik falsafa qaysi?
12. Interfaol metodlar qaysi ilmiy tamoyillarga tayanadi?
13. Adabiyot o`qitish kechimidagi asosiy ishni ko`rsatib bering.
14. “Adabiyot o`qitish metodikasi” fanining ilmiy tadqiqot metodlarini ko`rsating.
15. Qadim Turkistonda adabiyot o`qitish nimaga qaratilgan?
16. Adabiyot o`qitishning asoslarini toping.
17. Ta`lim metodi tushunchasining tarkibi aks etgan javobni toping.
18. Adabiyot o`qitish metodlari to`laroq ko`rsatilgan qatorni belgilang.
19. Bugungi adabiy ta`lim o`quvchini kim deb hisoblaydi?
20. Adabiyot o`qitish jarayonida o`quvchi va o`qituvchi munosabatlari xarakteri qanday?

21. Ko`rsatmali quollardan foydalanishda tayaniladigan asosni belgilang.
22. Qaysi ko`rsatmali qurol turi adabiyot darslarida ko`p qo'llaniladi?
23. Qo`pol xatoning asosiy belgisini ayting.
24. Qo`pol bo`limgan xatoning asosiy belgisini ko`rsating.
25. O`quvchi fikrlashining nochorligini ko`rsatuvchi eng jiddiy xato turini belgilang.
26. Uslub xatosiga bunchalik jiddiy qaralishi sababini izohlang.
27. Dars tahlili turlarini ayting.
28. Umumpedagogik tahlilga xos belgilarni ayting.
29. Ta'limning interfaol usuli uchun javoblarning sifatidan ko`ra miqdori muhim ekani sababi nimada?
30. Kichik guruh a'zolarining faolligini ta'minlaydigan omil nima?
31. Adabiyot o`qituvchisiga qo`yiladigan kasbiy talablar qaysilar?
32. Ona tili darslarida o`qituvchi tomonidan bilimlar tayyor holda beriladigan metod ko`rsatilgan qatorni aniqlang.
33. Ona tili darslarida ko`rgazmali quollardan qachon foydalanish mumkin?
34. Grammatik tahlil ona tili darsining qaysi tipida o`tkaziladi?
35. Darslikda berilgan mashqlardagi tarixiy so`zlarni izohlashda qaysi lug`atlardan foydalanish mumkin?
36. Mumtoz asarlarni tahlil qilihda foydalaniladigan manbalarni ayting.
37. Filologik tahlilda qanday pedagogik texnikalardan foydalanish mumkin?
38. Didaktik tahlil jarayonida foydalaniladigan zamonavi metod va texniklar haqida ayting.
39. Chiroyli xatni ta'minlaydigan omillar haqida ayting.
40. Og`zaki va yozma nutqda savodxonlik, maqsadning aniq va dalillanganligini ta'minlovchi omillarni ayting.